

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI
fanidan
AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN USLUBIY QO'LLANMA
(1-QISM)



Toshkent 2022

**Qodirov F.M., G.E.Saidova, M.R.Agzamova. Hayot faoliyati xavfsizligi
fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma.**

Taqrizchilar: Axborot texnologiyalarining dasturiyta’mnoti kafedrasи, PhD O.B.Ro‘ziboyev

Toshkent Davlat transport universiteti Aeronavigatsiya tizimlari kafedrasи f-m.f.n. dotsenti I.M.Saidumarov

Qodirov F.M., G.E.Saidova, M.R.Agzamova. Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. Uslubiy qo‘llanma. - TATU, 2022. – 86 b.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarning maqsadi, mavzular bo‘yicha tayanch iboralar va nazariy materiallar, faoliyat xavfsizligini ta’minlash, baxtsiz hodisalar va kasallanishlarni oldini olishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqishda zarur hisoblar uslubi va mustaqil ishslash uchun variantlar keltirilgan.

Кодиров Ф.М., Сайдова Г.Э., М.Р.Агзамова. Методическое пособие для практических занятий по дисциплине безопасность жизнедеятельности. Методические пособие. ТУИТ, 2022. – 86 стр.

Изложены цели практических занятий по предмету “Безопасность жизнедеятельности” и приведены основные термины и теоретические материалы по темам, методика расчета задач по обеспечению безопасности деятельности, разработке мероприятий, направленных на предупреждение несчастных случаев и заболеваний, варианты для самостоятельной работы.

Qodirov F.M., Saidova G.E., M.R.Agzamova. Methodological manual for practical exercises in the discipline of life safety. Textbook. - TUIT, 2022. – 86 p.

The goals of practical lessons on the subject "Life Safety" are stated and the basic terms and theoretical materials on the topics, the methodology for calculating tasks to ensure the safety of activities, the development of measures aimed at preventing accidents and diseases, options for independent work are presented.

Uslubiy qo‘llanma barcha oliy o’quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalarga mo’ljallangan.

MUNDARIJA

| | | |
|-----------------------|---|----------|
| | Kirish | 4 |
| 1 - AMALIY MASHG'ULOT | Ishlab chiqarish binolarida qulay ish maydonini aniqlash va mehnatni ilmiy tashkil etishda ish vaqtini o'rganish usuli .. | 6 |
| 2 - AMALIY MASHG'ULOT | Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish | 16 |
| 3 - AMALIY MASHG'ULOT | Havo almashunivining karraliligini hisoblash | 22 |
| 4 - AMALIY MASHG'ULOT | Ish xonasida konditsionerdan foydalanish zarurligini asoslash | 28 |
| 5 - AMALIY MASHG'ULOT | Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblash | 34 |
| 6 - AMALIY MASHG'ULOT | Ishlab chiqarish korxonalarida yoritilganlikni hisoblash | 46 |
| 7 - AMALIY MASHG'ULOT | Elektromagnit maydon nurlanishlaridan himoyalanishni hisoblash | 57 |
| 8 - AMALIY MASHG'ULOT | Ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanishni hisoblash | 63 |
| Ilova | | 75 |
| Adabiyotlar | | 82 |

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o'rindadir. Asosiy Qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmati, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga bo'lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

«Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining umumiyligi maqsadi-xavfsiz kelajakni ta'minlash, iqtisodiy masalalarni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog'langan holda olib borish, inson faoliyatining ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati bilan chegaralanmasdan, uning xar xil tabiiy va tasodifiy ofatlardan saqlash masallarini o'rganish hisoblanadi. Buning asosida rivojlanishning hamma jarayonlarini bir tekis o'sib borishini ta'minlash, umumbashariy tabiiy zahiralarini tejash, texnologiyalarni xavfsizlarini tanlash, tashqi muhit bilan xavfsiz muloqot qilishni ta'minlaydigan etuk kadrlarni tayyorlash masalalari yotadi. Bunda e'tiborni hamma jabhalarda bu ishlarga alohida ahamiyat beruvchi rahbar xodimlarni tayyorlash masalasiga ahamiyat berish zarurati ko'rindi. Hayot faoliyati xavfsizligi negizini uchta mustaqil fan tashkil qiladi: mehnatni muhofaza qilish (ishlab chiqarish sanitariyasi, xavfsizlik texnikasi, mehnat qonuniyatları, yong'in xavfsizligi) va fuqarolar mudofaasi (favqulodda holatlar) fanlari. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirining ko'rsatma va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlari tashkil etadi.

Hozirgi zamondagi ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni bajarishda ko'plab mashina va uskunalar ishlatiladi. Ularga alohida-alohida xavfsizlik talablari ishlab chiqarilgan. Shu boisdan hayot faoliyati xavfsizligi masalalarini qismlarini o'rganishda xavf paydo bo'lish manbalari, ularning qisqacha xarakteristikasi, insonga ta'siri, muxofaza yo'llarini ma'ruza matnida bayon etish lozim. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fanini o'rganishda texnik, fizik- kimyoviy,

tibbiy, biologik, qishloq xo'jaligi, huquqiy va boshqa fanlarning yutuqlariga asoslanish zarur.

Unda mehnat muhofazasiga qisqacha kirish, mehnat qonunchiligi, mehnat gigienasi va sanoat sanitariyasi, yoritish, shovqin va titrash, elektr havfsizligi, og'ir va ko'p mehnatni mexanizatsiyalash, korxona hududini obodlantirish, yong'in havfsizligini ta'minlash va boshqa dolzarb muammolar o'rganiladi.

Fanning vazifasi bo'lajak mutaxassislarga hayot faoliyati va mehnat xavfsizligini ilmiy asosini o'rganish, ularga ishlab chiqarishda sog'lom ish sharoitini yaratish, shuningdek ishlab chiqarishdagi xavfsizlikni ta'minlashni o'rganishdir.

Shunday qilib, "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fani barcha qonunlashtiruvchi aktlar, ijtimoiy - iqtisodiy tadbirlar tizimi bo'lib insonni ishga qobiliyatligini, sog'ligini va xavfsizligini ta'minlaydi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nigmalar, ishlab chiqarishdagi hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fanning ushbu maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar talabalarga ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda hamda mehnat sharoitini, favqulodda vaziyatlar darajasini hamda ekologik omillarni baholash va tahlil qilishda mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Undan fan bo'yicha namunaviy dasturlarga asoslangan holda boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham foydalanish mumkin.

Uslubiy qo'llanma barcha oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bakalavrлarga mo'ljallangan. Shuningdek, undan korxona va tashkilotlarning rahbarlari, xodimlari hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim tizimi tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

**ISHLAB CHIQARISH BINOLARIDA QULAY ISH MAYDONINI
ANIQLASH VA MEHNATNI ILMIY TASHKIL ETISHDA ISH VAQTINI
O'RGANISH USULI.**

1.1. Ishlab chiqarish binolarida qulay ish maydonini aniqlash

1.1.1 Ishlab chiqarish binolarida qulay ish maydonini aniqlashdan maqsad:

Mehnat faoliyati jarayonida ishchining optimal holati, uning yuqori ish qobiliyati va mehnat unimdorligini ta'minlash, hamda o'quv xona misolida xonalarining sanitariya-gigiena talablariga ko'ra va qulay estetik idrokga mosligini aniqlashdan iborat.

1.1.2. Umumiy tushunchalar va ta'riflar

Bino va inshootlarni loyihalash ular quriladigan hududga bevosita bog'liq, shuning uchun o'sha hudud bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha ilmiy asoslangan holda tahlil qilib chiqilishi zarur. Eslatib o'tish joizki, bu tahlilning asosida loyihalash vazifasidan va maqsadidan qat'iy nazar birinchi navbatda inson omili yotadi.

Quriladigan bino yoki inshootlarda yashash, mehnat qilish, o'qish va h.k. lar uchun eng qulay muhit yaratilishi lozim. Buning uchun atrof-muhit holati quyidagi asosiy omillar bo'yicha baholanadi:

- hududning iqlimi va mikroiqlimini baholash;
- havo basseynining ifloslanganlik darajasini baholash;
- suv havzalarining sanitar-gigiyenik holatini baholash;
- hududning relyefi va geologik muhitining buzilganlik darajasini baholash;
- yerning ustki unumdor qatlami (tuproq)ning sanitar-gigiyenik holatini baholash;
- atrof-muhitga fizik omillarning ta'siri darajasini baholash;
- ko'kalamzorlashtirilgan hududlami baholash.

Ko‘rinib turibdiki, atrof-muhit holatini baholashga yondoshish, masalaga kompleks yondoshishni talab qiladi.

Binolarga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Binolar quyidagi ko‘rsatkichlarga binoan bir-biridan farq qiladilar:

1. Vazifasiga muvofiqligi, ya’ni bino qaysi jarayon (maqsad)ga mo‘ljallangan bo’lsa, u shu jarayon talabiga to’liq javob berishi kerak (yashash uchun, mehnat qilish uchun qulay, dam olishga moslashgan va h.k.).

2. Texnik tomondan muvofiqligi, ya’ni bino kishilarni tashqi ta’sirlar (past yoki yuqori harorat, yog’ingarchilik, shamol va h.k.) dan to‘la asrashi, mustahkam va ustivor bo‘lishi, ekspluatatsiya sifatlarini uzoq vaqtgacha saqlashi lozim.

3. Bino ko‘rinishi me’morchilik va badiiylik talablariga mos holda tanlanishi, uning tashqi (eksterper) va ichki (interper) ko‘rinishi chiroyli, shinam, atrof-muhit bilan uyg'unlashgan bo‘lishi kerak.

4. Iqtisodiy jihatdan qulayligi, ya’ni bino va inshoot qurilishida mehnat sarfini kamaytirish, qurilish ashyolarini va vaqtini tejash ko‘zda tutiladi.

Bino va inshootlar sinflari.

Binolar quyidagi ko‘rsatkichlariga ko‘ra har xil kategoriyalarga bo‘linadi.

Vazifasiga ko‘ra:

1. *Fuqaro (turar-joy va jamoat)* – kishilarning maishiy va jamoatchilik ehtiyojlariga mo‘ljallangan binolar.

Turar-joy binolari – yashash uchun qurilgan uylar, yotoqxonalar, mehmonxonalar va b.

Jamoat binolari – ma’muriy, o‘quv, madaniy-maishiy, savdo, kommunal xo‘jalik, sport va boshqa turdagи binolar.

2. *Sanoat binolari* – biror sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda mehnat jarayonini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan va ichiga ishlab chiqarish qurollari joylashtirilgan binolar (ustaxonalar, omborxonalar, garajlar, elektrostansiyalar, sex binolari va b.).

3. *Qishloq xojalik binolari* – qishloq xo‘jaligi extiyojlarini qondirish uchun foydalilaniladigan binolar (molxona, parrandaxona, issiqxonalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlaydigan omborxonalar va b.).

1.1.3. Ishlab chiqarish binolarida qulay ish maydonini aniqlashda dastlabki ma’lumotlar

O‘quv xonalarining sanitariya-gigiena talablariga ko‘ra va qulay estetik idrokga mosligini aniqlang. Vazifani bajarish uchun variantlar bo‘yicha 1.1.1-jadvaldan foydalaning.

1.1.1-jadval

Dastlabki ma’lumotlar. Foydalilaniladigan xonalar parametrlari

| Variant raqami, № | Foydalilaniladigan xona turi | a, [metr] | b, [metr] | h, [metr] | l, [metr] | Talabalar soni |
|----------------------------------|---|----------------------|----------------------|----------------------|----------------------|---------------------------|
| 1 | | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1 | Ma’ruza xonasi | 15 | 7,5 | 3,0 | 2,0 | 80 |
| 2 | Amaliy mashg‘ulot xonasi | 12 | 6 | 2,8 | 2,0 | 30 |
| 3 | Laboratoriya xonasi | 10 | 5 | 2,75 | 2,0 | 15 |
| 4 | Kompyuter sinfi | 14 | 6 | 2,2 | 1,75 | 12 |
| 5 | Seminar xonasi | 13 | 7,5 | 2 | 1,8 | 30 |
| 6 | Ma’ruza xonasi | 20 | 9 | 3,2 | 1,8 | 100 |
| 7 | Amaliy mashg‘ulot xonasi | 14 | 7,5 | 2,6 | 1,75 | 33 |
| 8 | Laboratoriya xonasi | 9 | 5 | 2,2 | 1,8 | 20 |
| 9 | Kompyuter sinfi | 12 | 6 | 2,8 | 1,85 | 15 |
| 10 | Seminar xonasi | 11 | 6,5 | 2 | 1,8 | 30 |
| 11 | Ma’ruza xonasi | 18 | 8 | 2,75 | 2,0 | 80 |
| 12 | Amaliy mashg‘ulot xonasi | 13 | 6 | 2,8 | 1,7 | 28 |
| 13 | Laboratoriya xonasi | 8 | 6 | 2,7 | 1,5 | 18 |
| 14 | Kompyuter sinfi | 12 | 5 | 2,2 | 1,75 | 18 |
| 15 | Seminar xonasi | 10 | 4 | 2 | 1,8 | 30 |
| 16 | Ma’ruza xonasi | 16 | 8 | 2,5 | 1,85 | 70 |
| 17 | Amaliy mashg‘ulot xonasi | 10 | 5 | 3,0 | 2,0 | 15 |
| 18 | Laboratoriya xonasi | 12 | 7 | 2,8 | 2,0 | 12 |
| 19 | Kompyuter sinfi | 11 | 6 | 2,75 | 1,8 | 20 |
| 20 | Seminar xonasi | 14 | 5 | 2 | 2,2 | 26 |
| 21 | Ma’ruza xonasi | 20 | 9 | 3,2 | 1,8 | 100 |
| 22 | Amaliy mashg‘ulot xonasi | 14 | 7,5 | 2,6 | 1,75 | 33 |
| 23 | Laboratoriya xonasi | 9 | 5 | 2,2 | 1,8 | 20 |
| 24 | Kompyuter sinfi | 12 | 6 | 2,8 | 1,85 | 15 |
| 25 | Seminar xonasi | 11 | 6,5 | 2 | 1,8 | 30 |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|----|--------------------------|----|---|------|------|----|
| 26 | Ma'ruza xonasi | 18 | 8 | 2,75 | 2,0 | 80 |
| 27 | Amaliy mashg'ulot xonasi | 13 | 6 | 2,8 | 1,7 | 28 |
| 28 | Laboratoriya xonasi | 8 | 6 | 2,7 | 1,5 | 18 |
| 29 | Kompyuter sinfi | 12 | 5 | 2,2 | 1,75 | 18 |
| 30 | Seminar xonasi | 10 | 4 | 2 | 1,8 | 30 |

Eslatma: xona o'lchamlari a – xona uzunligi, b – xona kengligi, h – xona balandligi, l – kran yoki doskadan sinf stollarining birinchi qatorigacha bo'lgan masofa.

1.1.4. Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

1. O'quv xonasi maydonini ($S_{o'x.m.}, m^2$) hisoblash:

$$S_{o'x.m.} = a \cdot b, \quad m^2, \quad (1.1)$$

bu yerda: a – xona uzunligi, m , b – xona kengligi, m .

2. O'quv xonasi hajmini ($V_{o'x.m.}, m^3$) hisoblash:

$$V_{o'x.m.} = a \cdot b \cdot h, \quad m^3, \quad (1.2)$$

bu yerda: h – xonaning polidan shiftigacha bo'lgan masofa, balandlik, m .

3. Bitta talabaga to'g'ri keladigan xonadagi maydoni ($S_{1ta talabagao'x.m.}, m^2$) va xajmini ($V_{1ta talabagao'x.m.}, m^3$) hisoblang:

$$S_{1ta talabagao'x.m.} = \frac{S_{o'x.m.}}{n}, \quad m^2. \quad (1.3)$$

$$V_{1ta talabagao'x.m.} = \frac{V_{o'x.m.}}{n}, \quad m^3. \quad (1.4)$$

4. O'quv xonalarining sanitariya-gigiena talablari asosida hisoblangan natijalar bo'yicha xulosa qiling.

5. O'quv xonalarida rang tanlashning to'g'riliqi haqida xulosa qiling.

6. O'z takliflaringizni bildiring.

1.1.5. Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish binolarida qulay ish maydonini aniqlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

2. Ishlab chiqarish xonalarida rang tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

3. Kompyuter texnikasi joylashgan xonalarning sanitariya-gigienik normalari.

4. Mehnat jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlash uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Fuqaro, sanoat bino va inshootlari turlari.
6. Binolardan foydalanishda nimalarga e'tibor berish kerak?
7. Binolarning ko'rsatkichlariga binoan bir-biridan farq qilinishini tushuntirib bering?
8. Atrof-muhit holati qanday omillar bo'yicha baholanadi?
9. Ish joyi tushunchasini ta'riflab bering?
10. Ish joyini tashkil etish elementlari va ularni turlarini tushuntirib bering?
11. Ish joylarini rejalashtirish nima uchun ishlab chiqarish jarayonlarining to'g'ri tashkil etish asosi hisoblanadi?

1.2. Mehnatni ilmiy tashkil etishda ish vaqtini o'rganish usuli

1.2.1. Mehnatni ilmiy tashkil etishda ish vaqtini o'rganishdan maqsad:

Mehnatni ilmiy tashkil etish hozirgi zamon fanining ilg'or yutuqlari, tajriba siga tayangan holda material va texnikadan unumli foydalanib mehnat unumdorligini oshirish, ish vaqtidan va dastgohlardan oqilona foydalanish, ishchilarga qulay sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishni to'xtovsiz ishlashiga erishish kabi mukammal chora – tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

1.2.2. Nazariy ma'lumotlar

Mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy elementlariga quyidagilar: mehnatni oqilona taqsimlash natijasida quyidagilarga erishishimiz mumkin, mehnat va material sarflarini kamaytirish, mehnatni mazmunini oshirish, zeriktiriladigan ishlardan xalos qilish, toliqishni kamaytirish va malakani oshirish.

Mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy omillaridan yana biri ishchi jarayonlarni optimallashtirish va ish joylarining xizmat chegarasini aniqlash. Buning uchun hozirgi paytda har bir korxonada ish joylari tahlil qilinadi, ularni takomillashtirish esa ilg'or texnika-texnologiya va kompyuterlardan foydalanishga asoslanadi.

Mehnatni ilmiy tashkil etishda mehnatni ilg‘or usullaridan foydalanish, ishni to‘g‘ri tashkil etish va ish vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, tajribalarni ommalashtirish va uni o‘rganish asosiy omillardan biridir. Mehnatni tashkil etishning asosiy elementlaridan biri bo‘lg‘usi kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirishning muhim omillaridan biridir.

Mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tashkil qilish usullarini ishlab chiqishda bozor iqtisodiyotining yangi usullarini, fan va texnikaning, ishlab chiqarishning ilg‘or usullaridan foydalanish natijasida bir dona mahsulot uchun mehnat sarfini aniqlash tadbirlarini tuzish.

2. Mehnatni ishchilar orasida taqsimlashda samarali usullardan foydalanish. Har bir ishchini o‘zining sohasi bo‘yicha ish bilan ta’minalash, mehnatni jamoa bilan birgalikda tashkil etish, bir necha kasbni egallash va ularni bir-biriga bog‘lab olib borish.

3. Mehnatni me’yorlashni takomillashtirish. Agar me’yorlar qo‘llanilmagan bo‘lsa, ishlab chiqarish texnik sharoitlar yaratilmagan bo‘lsa, ishlab chiqarishda tashkil qilish imkoniyatlari hisobga olinmagan bo‘lsa, texnik va iqtisodiy hisobotlar to‘g‘ri bo‘lmasa mehnatni ilmiy tashkil etib bo‘lmaydi.

4. Mehnat sharoitlarini tubdan yaxshilash uchun quyidagilarni ta’minalash zarur: sanitariya-gigiena va sanoat estetikasi, mehnat sharoitini yaxshilash, dam olishni tashkil etish.

5. Korxonaning ilg‘or ishchilarini motivatsiyalash natijasida, mehnat intizomi, bir-biriga munosabati yaxshilanadi.

Korxonalarda mehnatni ilmiy tashkil qilishning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- ishlab turgan texnika va texnologiyalardan ratsional ravishda foydalanish;
- texnologiya sikli doirasidagi ayrim vazifalarni kombinatsiyalash;
- xodimlarni tanlash va malaka darajasiga qarab ish joylariga qo‘yish;
- mehnatning ilmiy jihatdan asoslangan uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ish joylarida ishchilarga maksimal darajadagi ishlar va maksimal darajada ishslash va ularga shart-sharoitlar yaratib berish;
- ishlab chiqarish jarayonida eng muhim bo‘lgan ichki bo‘g‘in (kollektivlar) faoliyatini yaxshilash va maqbul shakl uslublaridan foydalanishning oqilona ish tartiblarini tatbiq etish asosida yangi uslublardan foydalanish, xo‘jalik ehtiyojlarini qondirish va ulardan foydalanish manfaatdorligini oshirish uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish;
- muntazam ravishda xodimlar malakasini oshirish va ilg‘or ish uslublarini tadbiq etish;
- ishchilarni normal sharoitda mehnat qilishlari uchun qulay sanitariya-gigiena, psixofiziologik, estetik mehnat muhofazasini ta’minalash kabi tadbirlarni yaratib berish;
- oqilona mehnat qilish va dam olish rejalari jadvalini tuzish va joriy etish.

1.2.3. Ish vaqtini o’rganishda dastlabki ma’lumotlar

1.2.1-jadval

Kuzatuv varaqasi
(raqamlarda kuzatuv olib borish uchun)

| № variant | Ob’yekt nomi | Kuzatuv o’tkazish vaqtি | | | | | | | | | | |
|----------------|---|-------------------------|-----------------|-----------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|
| | | 8 ¹⁵ | 8 ³⁰ | 9 ⁰⁰ | 10 ⁰⁰ | 11 ⁰⁰ | 12 ⁰⁰ | 13 ⁰⁰ | 14 ⁰⁰ | 15 ⁰⁰ | 16 ⁰⁰ | 17 ⁰⁰ |
| I | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 |
| 1, 3, 5, 7 | Telekommu-nikatsiya operatorlari va provayderlarining ob’ekti | | | | | | | | | | | |
| 2, 4, 6, 8 | Umumiy ovqatlanish ob’ekti | | | | | | | | | | | |
| 9, 11, 13, 15 | Savdo ob’ekti | | | | | | | | | | | |
| 10, 12, 14, 16 | Xizmat ko’rsatish ob’ekti | | | | | | | | | | | |
| 17, 19, 21, 23 | Mobil aloqa baza stansiyasi ob’ekti | | | | | | | | | | | |
| 18, 20, 22, 24 | Teleradio ob’ektlari | | | | | | | | | | | |

| <i>I</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> | <i>9</i> | <i>10</i> | <i>11</i> | <i>12</i> | <i>13</i> |
|-----------------------|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 25, 27, 29, 31 | Mobil aloqa ob'ektlari | | | | | | | | | | | |
| 26, 28, 30, 32 | Ma'lumotlar uzatish xizmati ob'ektlari | | | | | | | | | | | |

Izoh: Kuzatuv olib borish uchun qo'yiladigan raqamlar: 1 - ish vaqt, 2 - ishga hodimlarni kech kelishi; 3 - elektr energiyasining yo'qligi, 4 - ta'mirlashni kutish, 5 - mehnat intizomiga rioya qilmashlik.

1.2.4. Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

Ish vaqtini o'rganish usuli

Mehnat jarayonini o'rganish va unga ilmiy yondoshish iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy, fiziologik va boshqa usullar asosida olib borilishi kerak. Mehnat jarayonini o'rganish va ish vaqtining nimalarga sarflanishi mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Buni hisobga olish mehnat jarayonini samaradorligini oshirilishiga olib keladi.

1. Xronometraj yo'li bilan kuzatish – ish jarayonini o'rganish, ishlab chiqarishda ish vaqtini sarflanishini, ba'zi ishlarni qaytarilishini, qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlarni, mahsulot bo'yicha ketma-ketligini va uni bajarish uchun ketgan vaqtini aniqlaydi.

2. Ish vaqtini fotografiya qilish – mehnat jarayonini o'rganish bo'lib, ishchining ish vaqtini qayerlarga sarflanishini (ish vaqt davomida yoki biror vaqt birligida) kuzatiladi va uni ma'lum bir davrda qancha mahsulotni tayyorlaganini aniqlaydi.

O'z ish vaqtini fotografiya qilish – ishchining ish vaqt mehnat jarayonini va ish vaqtini o'rganish bo'lib, ishchi o'zini mehnat faoliyatidan tashqari bajaradigan ishlarni ma'lum vaqt birligida hisobga oladi.

Kuzatishni birdaniga o'rganish usuli

1. Bosqich: Tayyorlov – bu bosqichda quyidagi ishlar bo'ladi:

- 1) Kuzatish uchun joy tanlash (brigada, smena, ishchilar guruhi va h.k).
- 2) Kuzatishni maqsadini aniqlash (ishchilarni ish vaqtidan foydalanishni o'rganish).

- 3) Har bir kuzatadigan obyektni guruhlarga bo‘lish va ularni jurnalga yozib qo‘yish (harflar va shifrlar orqali).
- 4) O‘rganish muddati aniqlanadi.
- 5) Kuzatish marshruti belgilanadi.
- 6) Marshrutlarga ketadigan vaqt aniqlanadi.
- 7) Smena ichida necha marta kuzatiladi?
- 8) Har bir kuzatish uchun qancha vaqt ketishi aniqlanadi.
- 9) Rasmga olish varaqasini tayyorlash (1.2.1 va 1.2.2-jadvallarda ko‘rsatilgan).

2. Bosqich: Kuzatishni olib borish.

Buning uchun kuzatuv olib boriladigan obyektni qanday ahvolda ekanligi aniqlanib, ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Kuzatish o‘tkazishning xulosalari aniq bo‘lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

- 1) Kuzatishni rejada ko‘rsatilgan vaqtida boshlash kerak.
- 2) Kuzatishni to‘xtatmasdan olib borish kerak.
- 3) Agar kuzatuvchi kelgan vaqtida obyektda har xil sharoitlar bo‘lib qolsa, u holatni kuzatish kartasiga yozib qo‘yish kerak.

3. Bosqich: Kuzatish natijalarini ishlash va tahlil qilish. Buning uchun quyidagi ishlar bajariladi.

- 1) Kuzatuv ishlarini to‘g‘ri va to‘liq olib borilganligini aniqlash.
- 2) Har bir kuzatilgan kun uchun jamlovchi kartalar tuzish.
- 3) Kuzatuv natijalari bo‘yicha statik hisobotlar tayyorlash.
- 4) Sarflangan vaqtning balansini faktlarga asoslangan jamlangan hisoboti tayyorlanadi, unda kuzatilgan hamma smena yoki kunlarning o‘rtacha miqdori olinadi.

Kuzatuv ishlarida quyidagi jadvallardan foydalilanadi.

Kuzatuv varaqasi
(belgilar orqali hisobot tayyorlash)

| Nº | Vaqt sarfi | Kuzatuv natijalari |
|----|--|--------------------|
| 1. | Ish | |
| 2. | Texnik va tashkil qilishdagi tanaffuslar | |
| 3. | Ishchining aybi bilan bo‘lgan tanaffus | |

Izoh:

| Kuzatish soni | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
|---------------|---|---|---|---|---|---|---|---|---|----|
| Shartli belgi | | | | | | | | | | |

1.2.5. Nazorat savollari

1. Mehnatni ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
2. Tashkil etish usullariga nimalar kiradi?
3. Mehnatni tashkil etishdan maqsad nima?
4. Mehnatni tashkil etishning asosiy elementlarini sanab bering. Ular nimalardan iborat?
5. Kuzatishni birdaniga usulini qanday bosqichlarini bilasiz?
6. Mehnatni ilmiy tashkil etish nimaga asoslanadi?
7. Kuzatuv ishlarida varaqa qanday to‘ldiriladi?
8. Ish joyi deb nimaga aytildi?
9. Yosh ishchilarga qanday talablar qo‘yiladi?
10. Mehnatni ilmiy tashkil etishni asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.
11. Ish vaqtini xronometraj yo‘li bilan qanday kuzatiladi?
12. Ish joyini ta’minlanganlik darajasi deganda nimani tushunasiz?
13. Ish joyining xizmat ko‘rsatishda qanday tadbirlar ishlab chiqiladi?
14. Ishchining holati qanday mezon bilan belgilanadi?

**ISHLAB CHIQARISHDAGI BAXTSIZ HODISALARINI
TEKSHIRISH VA HISOBGA OЛИSH**

2.1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarini tekshirish va hisobga olishdan maqsad:

Ishlab chiqarish korxonasidagi mehnatga layoqatsizlik ko'rsatkichlarini, korxona uchun ishlarning og'irliini, sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar natijasidagi baxtsiz hodisalarning chastotasi koeffitsiyenti va og'irlik koeffitsiyentini aniqlash hamda baxtsiz hodisadan qancha odam-kun yo'qotilish ehtimolini hisoblash ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

2.2. Nazariy ma'lumotlar

Har qanday shikast etkazuvchi voqeа baxtsiz hodisa sanaladi¹.

1. Mexanik (sanchilgan, kesilgan, lat egan va x.k.).
2. Termik (kuyish, muzlash, sovqotib qolish, issiqlik zarbasi va x.k.).
3. Elektrik.
4. Kimyoviy.
5. Psixik va boshqa.

Ularning oqibatida inson qisqa muddatga yoki uzoq davrga mehnatga layoqatini yuqotadi. Baxtsiz xodisa deb kasbiy kasalliklar, kasbiy zaxarlanishlar va ayrim xolatlarda umumiy kasalliklar tushuniladi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq baxtsiz xodisalar quyidagilardan iborat:

- ular tomonidan mehnat vazifalari (shu jumladan xizmat safarlari xam) ni bajarish, shuningdek ish beruvchi topshirig'isiz xam korxona manfaatlari doirasida biror bir xalokatlarni amalga oshirayotganda;
- korxona transportida ishga yo'l olayotganda yoki ishdan qaytayotganda;
- belgilangan tanaffuslardan tortib butun ish vaqtি mobaynida korxona xududi yoki boshqa ish joyida;

¹ Sapayev M.S., Qodirov F.M. Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya. O'quv qo'llanma, T.: "Aloqachi", 2019 – 276 b.

- o‘tqazilish joyidan qat’iy nazar shanbalik o‘tqazilayotgan vaqtida;
- ishlab chiqarishda yuz bergan avariyalarda;
- ish vaqtida xizmat ob’ektlari o‘rtasidagi xarakat bilan faoliyati bog‘liq xodim bilan jamoat transportida yoki piyoda, shuningdek ish beruvchining topshirig‘iga ko‘ra, ish joyiga ketayotganida;
- ish vaqtida xizmat safarlari yoki ish beruvchining topshirig‘iga ko‘ra, shaxsiy engil transportda;
- ish vaqtida boshqa shaxs tomonidan tanaga shikast etkazish, yoki mehnat vazifasini bajarayotganida xodimning qasddan o‘ldirilishi.

2.3. Dastlabki ma’lumotlar

2-amaliy mashqning 1-sharti:

Ishlab chiqarish korxonasidagi mehnatga layoqatsizlik ko’rsatkichlarini hisoblang. Ishlab chiqarish korxonasida xodimlarning o‘rtacha soni P_{kishi} ga teng bo’lib, yil davomida mehnatga layoqatsizlik kunlarining umumiy soni D_{kun} ga teng.

2.1-jadval

Dastlabki ma’lumotlar

| Parametr-lari | Variantlar | | | | | | | | | | | | | | |
|---------------|------------|-----|----|----|------|------|------|-----|-----|-----|-----|-----|----|----|----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| P_{kishi} | 232 | 175 | 89 | 50 | 1002 | 2000 | 1895 | 142 | 451 | 425 | 803 | 406 | 41 | 85 | 92 |
| D_{kun} | 6 | 5 | 12 | 14 | 24 | 42 | 48 | 52 | 98 | 36 | 31 | 30 | 6 | 5 | 7 |

2-amaliy mashqning 2-sharti:

Ishlab chiqarish korxonasidagi ishchilarining o‘rtacha soni P_{kishi} , yil davomida $N_{b.h.}$ baxtsiz hodisalar sodir bo’lgan va mehnatga layoqatsizlik ko’rsatkichi K_n ga teng bo’lgan korxona uchun ishlarning og’irlik ko’rsatkichini hisoblang.

2.2-jadval

Dastlabki ma’lumotlar

| Parametr-lari | Variantlar | | | | | | | | | | | | | | |
|---------------|------------|-----|-----|----|------|------|------|-----|-----|-----|-----|-----|----|-----|-----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| P_{kishi} | 232 | 175 | 89 | 50 | 1002 | 2000 | 1895 | 142 | 451 | 425 | 803 | 406 | 41 | 85 | 92 |
| $N_{b.h.}$ | 12 | 9 | 7 | 4 | 25 | 51 | 48 | 6 | 15 | 11 | 18 | 9 | 3 | 4 | 8 |
| K_n | 890 | 451 | 172 | 89 | 641 | 756 | 687 | 225 | 580 | 512 | 683 | 348 | 74 | 168 | 188 |

2-amaliy mashqning 3-sharti:

Ishlab chiqarish korxonasida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar natijasida yil davomida kasallik ta'tilida bo'lgan 3 kishi bo'lib, ulardan biri D_1 ish kuni, ikkinchisi D_2 , uchinchisi D_3 ish kuni kasal bo'lgan. Agar korxonada P kishi ishlayotgan bo'lsa, baxtsiz hodisalarning chastotasi koeffitsiyenti K_{ch} va og'irlilik koeffitsiyentini K_{og} toping.

2.3-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari | Variantlar | | | | | | | | | | | | | | |
|---------------|------------|-----|----|----|------|------|------|-----|-----|-----|-----|-----|----|----|----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | |
| P_{kishi} | 232 | 175 | 89 | 50 | 1002 | 2000 | 1895 | 142 | 451 | 425 | 803 | 406 | 41 | 85 | 92 |
| D_1 | 7 | 21 | 5 | 15 | 14 | 30 | 12 | 21 | 10 | 7 | 8 | 18 | 3 | 12 | 17 |
| D_2 | 14 | 14 | 10 | 10 | 20 | 14 | 21 | 15 | 45 | 41 | 16 | 7 | 2 | 31 | 26 |
| D_3 | 21 | 7 | 15 | 5 | 30 | 20 | 15 | 12 | 7 | 10 | 18 | 4 | 6 | 9 | 32 |

2-amaliy mashqning 4-sharti:

Ishlab chiqarish korxonasida 5 yillik o'rtacha baxtsiz hodisalarning chastota koeffitsiyenti K_{ch} , og'irlilik koeffitsiyentini K_{og} teng. Agar joriy yilda korxonada P_{kishi} kishi ishlayotgan bo'lsa baxtsiz hodisadan qancha odam-kun D yo'qotilish ehtimoli bor?

2.4-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari | Dastlabki ma'lumotlar / variantlari | | | | | | | | | | | | | | |
|---------------|-------------------------------------|--------|---------|---------|---------|--------|---------|---------|---------|-------|--------|--------|--------|--------|---------|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | |
| P_{kishi} | 232 | 175 | 89 | 50 | 1002 | 2000 | 1895 | 142 | 451 | 425 | 803 | 406 | 41 | 85 | 92 |
| K_{ch} | 16 | 5 | 10 | 28 | 32 | 8 | 4 | 5 | 16 | 9 | 6 | 12 | 24 | 26 | 30 |
| K_{og} . | 2 | 4 | 6 | 8 | 10 | 2 | 5 | 7 | 9 | 4 | 7 | 6 | 9 | 2 | 5 |
| $C_{h.n.}$ | 2 | 4 | 6 | 7 | 7 | 1 | 3 | 4 | 8 | 2 | 3 | 1 | 4 | 3 | 4 |
| M_x | 756000 | 800000 | 1760000 | 3890000 | 7800000 | 243000 | 1230000 | 4576000 | 9542100 | 46600 | 675000 | 234000 | 846200 | 962010 | 1430000 |

2.4. Hisoblash uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Baxtsiz hodisalarning statistik tahlili bilan, uning sabablarini tahlil qilishdan tashqari, baxtsiz hodisalar ish turi, jabrlanganlar to‘g’risidagi ma'lumotlar (kasbi, ish stoji, jinsi, yoshi) va vaqt davri (yil, oy, kun, hafta, smena, ish kunining soati) bo‘yicha tahlil qilinadi.

Ishlab chiqarish jarohatlarini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi: shikastlanish darajasi, baxtsiz hodisalarning og’irligi darajasi, shikastlanishning yo’qolishi darajasi va jarohatlarsiz ishlash muddati.

Hisobot davrida 1000 xodimga to‘g’ri keladigan baxtsiz hodisalar sonini aniqlaydigan baxtsiz hodisalarning chastota koeffitsiyenti ($K_{ch.}$) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_{ch.} = \frac{N_{b.h.} \cdot 1000}{P}, \quad (2.1)$$

bu yerda: $N_{b.h.}$ – hisobot davridagi baxtsiz hodisalar soni (1 kun va undan ko‘proq vaqt davomida sodir bo‘lgan mehnatga layoqatsizlikni yo‘qotish bilan bog’liq bo‘lgan baxtsiz hodisalar soni); P – xuddi shu hisobot davri uchun ushbu korxonadagi xodimlarning o’rtacha soni.

Baxtsiz hodisalarning og’irlilik koeffitsiyenti ($K_{og'}$), ya’ni yil davomida korxonada bitta baxtsiz hodisa uchun mehnatga layoqatsizlik kunlarining o’rtacha soni quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_{og'} = \frac{D}{N_{b.h.}}, \quad (2.2)$$

bu yerda: D – yil davomida korxonadagi baxtsiz hodisalar tufayli mehnatga layoqatsizlik kunlarining umumiyl soni.

Ishlab chiqarish jarohatlari darajasini yanada ob’ektiv baholash uchun 1000 ishchiga to‘g’ri keladigan mehnatga layoqatsizlik kunlarining sonini ifodalovchi umumiyl jarohatlar ko‘rsatkichi (shikastlanishni yo‘qotish koeffitsiyenti K_p) qo‘llaniladi:

$$K_p = K_{og'} \cdot K_{ch.} \quad (2.3)$$

bu yerda: $K_{og'}$ – baxtsiz hodisalarning og’irlik koeffitsiyenti; K_{ch} – baxtsiz hodisalarning chastota koeffitsiyenti.

Belgilangan jarohatlar darajasini aniqlashda og’ir (nogiron) va o’limga olib keladigan holatlar hisobga olinmadi.

Jarohatlarsiz ish kunlari ($T_{i.k.}$) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$T_{i.k.} = \frac{270}{N_{b.h.}}, \quad (2.4)$$

bu yerda: 270 – umumiy ish kunlari.

Og'ir (nogiron) va o'limga olib keladigan baxtsiz hodisalar sonini aks ettiruvchi ko'rsatkich ($N_{o.o'}$):

$$N_{o.o'} = C_{h.n.} - \frac{I}{N_{b.h.}} \cdot 100\% \quad (2.5)$$

bu yerda: $C_{h.n.}$ – halokatli va nogironlik holatlari soni; $N_{b.h.}$ – hisobot davridagi baxtsiz hodisalar soni (1 kun va undan ko'proq vaqt davomida sodir bo'lgan mehnatga layoqatsizlikni yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalar soni);

Jarohatlar va kasb kasalliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash uchun har bir baxtsiz hodisa uchun sarflangan xarajatlarni (K_m) aniqlash mumkin:

$$K_m = \frac{M_x}{N_{b.h.}}, sum \quad (2.5)$$

bu yerda: M_x – hisobot davridagi baxtsiz hodisalar natijasida ish beruvchi tomonidan qilingan moddiy xarajatlar; $N_{b.h.}$ – hisobot davridagi baxtsiz hodisalar soni (1 kun va undan ko'proq vaqt davomida sodir bo'lgan mehnatga layoqatsizlikni yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalar soni).

2.5. Nazorat savollari

1. Baxtsiz hodisaga ta'rif bering?
2. Baxtsiz xodisaga olib keladigan sabablar va ko'rila'digan tadbirlar nimalardan iborat?
3. Baxtsiz xodisalar va ularning baholanishi.

4. Baxtsiz hodisalarini oldini olish bo'yicha qanday umumiy qoidalar mavjud?
5. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishlarini tekshirish va hisobga olishning tartibi nimalardan iborat?
6. Qanday baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi?
7. Maxsus tekshirish komissiyasining talabiga ko'ra ish beruvchi nimalar qilishi kerak?
8. Baxtsiz hodisalar to'g'risida xisobot va ularning kelib chiqishi sabablari tahlilini aytib bering.
9. H1 shaklidagi dalolatnomani to'ldirishdagi bandlarni mazmunini izohlab bering.
10. Jarohatlar va kasb kasalliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari qanday baholanadi?

HAVO ALMASHUNIVINING KARRALILIGINI HISOBLASH

3.1. Havo almashunivining karraliliginin hisoblashdan maqsad:

Issiqlik, gaz va chang zararli ajralmalari buyicha havo almashinuvining karraliliginini aniqlash.

3.2. Nazariy ma'lumotlar.

Zararli changlar va ulardan himoyalanish. Ishlab chiqarishdagi ko'pgina jarayonlar turli xil tarkibdagi chang va gazlarni ajralib chiqishi bilan amalga oshadi. Shu sababli, sof toza havo deyarli uchramaydi va havo tarkibida hamisha ma'lum miqdorda (1 m^3 toza havo tarkibida 0,25 mg. dan 0,5 mg. gacha) changlar bo'ladi. Changlar ko'rinishi va tarkibiga bog'liq holda quyidagi guruhlarga bo'linadi: organik, noorganik (mineral) va metall changlari.

Yirik changlar nafas olganda burun bo'shlig'ida qolib, o'pkaga kirmaydi. Mayda changlar esa (asosan, o'lchami 10 mk. dan kichik bo'lgan changlar) nafas orqali burun bo'shlig'idan o'tib, o'pkaga o'rnashadi va vaqt o'tishi bilan turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, diametri 0,3 mikrometrдан kichik changlar qonga tushishi ham mumkin. Changlar o'z zarrachalari yuzasida turli xil zararli moddalar (mishyak, berilliy, kadmiy, nikel, qo'rg'oshin, xrom, mis, asbest, vanadiy va b.) bilan bog'lanib insonni kuchli zaharlanishiga sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish chiqindilari va zaharli moddalar. Ishlab chiqarishda foydalilaniladigan yoki texnologik jarayonlarni amalga oshirish davrida ajralib chiqadigan turli xil agressiv va zaharli kimyoviy moddalar, jumladan, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy o'g'itlar, pestitsidlar, tibbiyotda va dori-darmon tayyorlashda, atir-upa, attorlik mollarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddalar ham inson sog'ligiga katta ziyon etkazmoqda. Ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik (allergik kasalliklarini keltirib chiqarish xususiyati), kanserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish

xususiyati), mo'tagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy, simob), noorganik gazlar (oltingugurt ikki oksidi, is gazi, azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'ligi uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda rak kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir.

Davlat standarti bo'yicha inson sog'ligiga ta'sir etuvchi xavfli moddalar 4 sinfga ajratilgan:

- 1-sinf - favqulotda xavfli moddalar, $REM < 0,1 \text{ mg/m}^3$;
- 2-sinf - yuqori xavflilikdagi moddalar, $REM = 0,1 \dots 1,0 \text{ mg/m}^3$;
- 3-sinf - o'rtacha xavflilikdagi moddalar, $REM = 1,0 \dots 10 \text{ mg/m}^3$;
- 4-sinf - kam xavflilikdagi moddalar, $REM > 10 \text{ mg/m}^3$.

Xuddi shuningdek ushbu zaharli moddalarning havo tarkibidagi o'limga olib keluvchi miqdorlari 1 - sind uchun 500 mg/m^3 ; 2-sinf uchun $500-5000 \text{ mg/m}^3$; 3 - sind uchun $5001 - 50000 \text{ mg/m}^3$; 4 - sind uchun 50000 mg/m^3 dan yuqori. Lekin, bu moddalarning havo orqali emas, balki boshqa yo'llar orqali (masalan, ovqat orqali, ular bilan bevosita muloqot qilish orqali) oshqozonga yoki teriga ta'sir etgandagi o'limga olib keluvchi miqdorlari bir necha o'n barobar kichikdir. Masalan, 1 - sindagi zaharli moddalarning oshqozonga tushgandagi o'limga olib keluvchi miqdori 15 mg/kg ga tengdir.

Ayrim xavfli va zaharli moddalarning ma'lum konsentratsiyasi portlashga yoki yong'inga ham olib kelishi mumkin. Masalan, avtomobil benzini xona haroratida 1 m^2 ochiq yuzadan 400 g/soat tezlikda bug'lanadi. Benzin buhlarining havo tarkibidagi $0,76\dots5,03\%$ dagi konsentratsiyasi esa portlashga olib kelishi mumkin. Shuningdek, agar havo tarkibida benzin konsentratsiyasi miqdori $3-4 \text{ g/m}^3$ bo'lsa, 2-3 minut ichida insonning ko'zidan yosh kelishi, qattiq yo'tal tutishi,

yurish muvozanati buzilishi mumkin, benzinning havo tarkibidagi konsentratsiyasi $30 - 40 \text{ g/m}^3$ bo‘lganda esa, inson 2-3 nafasdayoq hushidan ketadi.

Ish joylari havosini sog‘lomlashtirishda birinchi navbatda zararli changlar va gazlarning manbalari, ularni yuzaga kelishini kamaytirish yo‘llari, ushbu zararli gaz va changlarni ish joyi zonasiga kirish sabablari o‘rganilib, bartaraf etish choralar ko‘riladi.

3.3. Havo almashunivining karraliligini hisoblashda dastlabki ma’lumotlar

Dastlabki ma’lumotlar variantlar bo‘yicha 3.1-jadvallardan olinadi.

Dastlabki ma’lumotlar

3.1-jadval

| Parametrlari | Variantlar | | | | | | | | | | |
|----------------------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|--|
| | 1, 3, 5 | 2, 4, 6 | 7, 9, 11 | 8, 10, 12 | 13, 15, 17 | 14, 16, 18 | 19, 21, 23 | 20, 22, 24 | 25, 27, 29 | 26, 28, 30 | |
| <i>I</i> | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | |
| <i>V, m³</i> | 100 | 150 | 200 | 250 | 300 | 350 | 400 | 450 | 500 | 550 | |
| <i>Q_p, kj/soat</i> | $5 \cdot 10^3$ | $6 \cdot 10^3$ | $7 \cdot 10^3$ | $8 \cdot 10^3$ | $9 \cdot 10^3$ | $1 \cdot 10^4$ | $2 \cdot 10^4$ | $3 \cdot 10^4$ | $4 \cdot 10^4$ | $5 \cdot 10^4$ | |
| <i>Q_{ajr.}, kj/soat</i> | $1,0 \cdot 10^3$ | $1,2 \cdot 10^3$ | $1,4 \cdot 10^3$ | $1,6 \cdot 10^3$ | $1,8 \cdot 10^3$ | $2,0 \cdot 10^3$ | $3,2 \cdot 10^3$ | $4,0 \cdot 10^3$ | $4,4 \cdot 10^3$ | $6,0 \cdot 10^3$ | |
| $\Delta T, ^\circ K$ | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | |
| <i>W_{Pb}, g/soat</i> | 1,5 | 1,75 | 1,85 | 2,0 | 2,2 | 2,8 | 3,0 | 4,0 | 5,0 | 5,5 | |
| <i>W_{Al}, g/soat</i> | 2,0 | 2,2 | 2,8 | 3,0 | 4,0 | 5,0 | 5,5 | 1,25 | 1,5 | 1,85 | |
| <i>W_{Co}, g/soat</i> | 5,0 | 5,5 | 4,8 | 4,0 | 3,25 | 2,8 | 1,75 | 1,85 | 2,0 | 2,5 | |
| <i>W_{Mn}, g/soat</i> | 3,0 | 4,0 | 5,0 | 5,5 | 4,25 | 4,75 | 5,25 | 3,75 | 6,25 | 6,0 | |
| <i>W_{Ni}, g/soat</i> | 2,8 | 2,0 | 3,2 | 2,0 | 3,75 | 1,25 | 1,85 | 3,50 | 4,50 | 5,0 | |
| <i>W_{Cr}, g/soat</i> | 4,0 | 4,2 | 4,7 | 1,85 | 2,0 | 2,2 | 2,8 | 3,40 | 6,15 | 6,25 | |
| <i>W_{Be}, g/soat</i> | 3,0 | 2,0 | 2,2 | 2,8 | 3,0 | 4,0 | 5,0 | 5,5 | 2,75 | 1,50 | |
| <i>W_{Kd}, g/soat</i> | 3,5 | 2,1 | 1,75 | 3,0 | 4,0 | 5,0 | 5,5 | 5,15 | 1,2 | 1,70 | |
| <i>W_{Tl}, g/soat</i> | 1,5 | 1,75 | 1,55 | 5,25 | 1,85 | 2,0 | 3,4 | 2,80 | 3,80 | 4,85 | |

3.4. Hisoblash uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Ish binolarida uzlusiz havo almashinushi imkoniyatini ko‘rib chiqish va xavfli ajralmalardan himoyalash bo‘yicha muxandislik echimlarini qo‘llash zarur. Shamollatish tabiy va mexanik turlarga bo‘linadi. Shamollatish qurilmalarni ishslash effektivligini nazorat qilishda ishlab chiqarish binolarida havo almashtirish marttaligi nazorat qilinadi, shuningdek, harorat, namlik, havo harakati tezligi o‘lchanadi va ishlab chiqarish binosining gigienik sifati tahlil qilinadi.

Haydash zarur bo‘ladigan $Q_{is.ajr.}$, issiqlik ajralmasi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Q_{is.ajr.} = Q_P - Q_{ajr.}, \text{ kj/soat} , \quad (3.1)$$

bu yerda: Q_p – ishlab chiqarish va qurilmalaridan, insonlardan issiqlik ajralishi, quyosh radiatsiyasi va boshqalar natijasida ishlab chiqarish binosiga keladigan issiqlik miqdori, kj/soat; $Q_{ajr.}$ – bino devorlari orqali atrof muhitga beriladigan issiqlik miqdori, kj/soat.

Issiqlik ajralganda 1 soat mobaynida ishlab chiqarish binosidan haydash zarur bo‘ladigan L havo miqdori quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$L = \frac{Q_{is.ajr.}}{C \cdot \Delta T \cdot \gamma_{ol.kir.}}, \text{ m}^3/\text{soat} , \quad (3.2)$$

bu yerda: C – havoning issiqlik sig‘imi, $C = 1 \text{ kj/kg}$; ΔT – olib kiriladigan va xaydaladigan havolar haroratlari farqi, K ; $\gamma_{ol.kir.}$ – olib kiriladigan havoning zichligi $\gamma_{ol.kir.} = 1.29 \text{ kg/m}^3$.

Bino havosida zararli gazlar va changlar bo‘lganida, ularni ruhsat etiladigan normalargacha kamaytirish uchun binoga uzatiladigan zarur havo miqdori quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$L = \frac{W}{C_d - C_n}, \text{ m}^3/\text{soat} , \quad (3.3)$$

bu yerda: W – keladigan zararli ajralmalar miqdori, g/soat ; C_d – bino havosida ruhsat etiladigan zarali ajralmalar konsentratsiyasi, g/m^3 , qo’yidagi 3.2-jadvaldan variant bo‘yicha olinadi.

C_n – ishlab chiqarish binosiga keladigan havodagi zararli aralashmalar konsentratsiyasi, g/m^3 . Bu topshiriqni bajarishda $C_n=0$ olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar

| Nº | Metall changlari | Ruxsat etilgan konsentratsiya miqdori (havoda), $C_d, g/m^3$ | Inson tanasining erta intoksikatsiyasining biomarkerlari |
|----|------------------|--|---|
| 1. | Qo'rg'oshin (Pb) | 0,01 mg/m ³ | Markaziy asab tizimi, buyraklar, gematopoetik organlarning shikastlanishi, vitamin etishmasligi. |
| 2. | Alyuminiy (Al) | 0,1 mg/m ³ | Neyrotoksiq ta'sir |
| 3. | Kobalt (Co) | 0,5 mg/m ³ | Funktsional markaziy asab tizimining, qalqonsimon bezning buzilishi. Surunkali rinoferingit. |
| 4. | Marganets (Mn) | 0,3 mg/m ³ | Markaziy asab tizimining funktsional holatini buzish, anemiya. |
| 5. | Nikel (Ni) | 0,5 mg/m ³ | Yurak, jigar, yuqori nafas yo'llari, ko'rish organlarining shikastlanishi. |
| 6. | Xrom (Cr) | 0,01 mg/m ³ | Jigar va buyraklar faoliyatining buzilishi. Bronxit. Dermatit, ekzema. |
| 7. | Berilliyl (Be) | 0.001 mg/m ³ | O'pka shikastlanishi - yurak va o'pka etishmovchiligi. |
| 8. | Kadmiy (Kd) | 0,01 mg/m ³ | Ko'p qutbli ta'sir — gipertenziyadan kanserogenezgacha. |
| 9. | Tallium (Tl) | 0,01 mg/m ³ | Markaziy asab tizimiga, oshqozon-ichak tizimiga, jigarga, buyraklarga zarar etkazish. Oyoqlarda og'riq, uyqu buzilishi. |

Har bir zararli ajralma turi uchun almashtiriladigan havo miqdori L alohida hisoblanadi. Keyin olingan qiymatlarning eng kattasi olinadi va havo almashinuvni karraliligi ifodasiga qo'yiladi:

$$K = \frac{L_{max}}{V}, 1/soat, \quad (3.4)$$

3.5. Nazorat savollari

1. Atmosfera havosining ifloslanishining asosiy sabablari nimada?
2. Sanoat binolari uchun qanday shamollatish tizimlari mavjud?
3. Shamollatish tizimining ishlashi qanday aniqlanadi?
4. Tortib oladigan va irmoq shamollatish tizimlarining tarkibi nimalardan iborat.
5. Konditsioner tizimlarining asosiy elementlarini aytинг.

6. Issiqlik ajralmasi va aralashmalarga qarshi kurashish uslublarini tushuntiring.
7. Ishlab chiqarish binolarida qanday ventilyasiya tizimlari mavjud.
8. Shamollatish tizimining unumдорligi qanday aniqlanadi.
9. Havo almashunuvi karraliligi nima va uni ishlab chiqarish binolarida qanday aniqlanadi.
10. Ishlab chiqarish binosining metrologik sharoitlari nima bilan xarakterlanadi?
11. Havoning sanitар-gigienik sifati nima.
12. Ishlab chiqarish changining qanday tutish va haydash uslublari mavjud.
13. Har bir ishchi uchun ishlab chiqarish binosi balandligining, shuningdek, hajmi va maydonining me'yorlari qanday?
14. Ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik me'yorlari.

ISH XONASIDA KONDITSIONERDAN FOYDALANISH ZARURLIGINI ASOSLASH

4.1. Ish xonasida konditsionerdan foydalanish zarurligini asoslashdan maqsad:

Mikroiqlimning asosiy parametrlari haqida tasavvurga ega bo'lish; ichki iqlimni me'yorlashtirish tamoyillarini o'rganish; ish joyidagi mikroiqlim parametrlarini o'rganish va baholash, ishlab chiqarish korxonalaridagi ish xonalarida shamollatish va havoni tozalash tizimlarini asosli qo'llanilishini hisoblashdan iborat.

4.2. Nazariy ma'lumotlar

Ishlab chiqarish korxonalaridagi mikroiqlim ko'rsatkichlari va uning inson salomatligiga ta'siri.

Yopiq ishlab chiqarish xonalaridagi meteorologik sharoitlarini (mikroiqlim) tavsiflovchi ko'rsatkichlar quyidagilardir:

- havoning harorati;
- havoning nisbiy namligi;
- havoning harakat tezligi;
- issiqlik nurlanishi jadalligi.

Mikroiqlimning maqbul ko'rsatkichlari ishlab chiqarish binolarini ishchi hududlarini doimiy va doimiy bo'limgan chegaralanmagan ish joylariga joriy qilinadi. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar esa ishchi hududning doimiy va doimiy bo'limgan ish joylari uchun o'rnatiladi. Ishlab chiqarish xonalarining ishchi hududidagi havoning harorati, nisbiy namligi va harakatlanish tezligining maqbul va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlari 4.1-jadvalda ko'satilgan kattaliklarga mos bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish muhitida iqlim sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar, havoning harorati, nisbiy namligi, havo bosimi va havoning harakat tezligidan

iborat bo‘lib, hammasi birgalikda kishining ish qobiliyatiga, mehnat unumdorligiga va inson organizmidagi biologik o‘zgarishlarga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Inson tanasidagi doimiy mo‘tadil harorat, modda almashuv jarayoni tufayli markaziy nerv a’zosining faoliyati orqali boshqarib turiladi.

4.1-jadval

Ishlab chiqarish xonalarining ishchi hududidagi havoning harorati, nisbiy namligi va harakat tezligining maqbul va yo‘l yo‘yilishi mumkin bo‘lgan normativlari

| Yilning iliq davri | Yilning sovuq davri | Ish toifasi | maqbul | Harorat, °C | | | | Nisbiy namlik, % | Harakatlanish tezligi, m/s | | |
|--------------------|---------------------|-------------|-------------|--------------------------------|--------------|----|-------|------------------|----------------------------|--------------------|--|
| | | | | yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan | | | | | | | |
| | | | | yuqori chegara | quyi chegara | | | | | | |
| | | | | ish joylarida | | | | | | | |
| Yengil – Ia | 22-24 | 25 | doimiy | 26 | 21 | 18 | 40-60 | 75 | 0.1 | ko‘p bo‘lmagan 0,1 | |
| | 21-23 | 24 | doimiy emas | 25 | 20 | 17 | 40 | 75 | 0.1 | ko‘p bo‘lmagan 0,2 | |
| | 18-20 | 23 | doimiy | 24 | 17 | 15 | | 75 | 0.2 | ko‘p bo‘lmagan 0,3 | |
| | 17-19 | 21 | doimiy emas | 23 | 15 | 13 | | 75 | 0.2 | ko‘p bo‘lmagan 0,4 | |
| | 16-18 | 19 | doimiy | 20 | 13 | 12 | | 75 | 0.3 | ko‘p bo‘lmagan 0,5 | |
| | 25-27 | 31 | doimiy | 32 | 24 | 23 | 40-60 | 30 | 0.1 | 0.3-0.5 | |
| | 24-26 | 31 | doimiy | 32 | 23 | 22 | | 35 | 0.2 | 0.3-0.6 | |
| | 23-25 | 30 | doimiy | 31 | 22 | 21 | | 40 | 0.3 | 0.3-0.7 | |
| | 22-24 | 29 | doimiy | 30 | 21 | 20 | | 45 | 0.3 | 0.4-0.7 | |
| | 21-23 | 27 | doimiy | 29 | 20 | 19 | | 50 | 0.4 | 0.4-0.7 | |

Inson uchun orombaxsh, mo‘tadil iqlim sharoiti deganda, yuqorida aytilgan havo o‘lchamlarining o‘zaro mutanosibligi tushuniladi. Bu mutanosiblik odam tanasida harorat odam tanasida harorat almashuvi reaksiyasini hech qanday zo‘riqishsiz kechishini hamda o‘zida huzur-halovat sezishi va shu bilan birga ishchanlik qobiliyatini yuqori bo‘lishligini ta’minlaydi.

Ma'lumki haroratning $18-25^{\circ}\text{C}$, nisbiy namlikni 40-70% va bosimning 740-760 mm. sm ustunida bo'lishi, odam tanasi va uni o'rabi turgan havo o'rtasidagi harorat almashinuvi jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki bunday sharoitda muhitlar o'rtasidagi issiqlik almashinuvi mufassal va qoldiqsiz ko'chadi, ya'ni tanadan chiqayotgan issiqlik tezligi uning havoga singib ketish tezligiga teng holda almashinadi. Agar havoning holatida bunday mutanosiblik buzilsa, shu muhitda ishlayotgan odamning salomatligida ham o'zgarish paydo bo'ladi.

Muhitning harorati $18-25^{\circ}\text{C}$ bo'lganda odam tanasidan chiqayotgan issiqlik nurlanish yoki harorat almashinuvi qonuni asosida havoga quruq g'ubor holatiga sekin tarqaladi, 30°C dan yuqori haroratda esa bug'lanish sodir bo'ladi, ya'ni tanadagi ortiqcha issiqlik mushaklardan sizib chiqayotgan quvvat ta'siridan yo'l-yo'lakay to'qimalardagi tuz eritmalarini yuvib, teri sirtida ter shaklida paydo bo'ladi.

Muhitning harorati oshgan sari tananing issiqlik uzatish qobiliyati susayib boradi, bug'lanish jarayoni esa to'xtovsiz ortib boradi, natijada organizm tez holsizlana boshlaydi. Agar havodagi nisbiy namlik 80 foizdan ortib ketsa tanadan ajralib chiqayotgan terning bug'lanishi qiyinlashadi va natijada tana bilan muhit o'rtasidagi harorat almashuvi buziladi.

Agar havo harakati tezligi oshib ketsa tana bilan havo o'rtasidagi harorat tafovuti keskin orta boradi, shu sababdan organizm tez soviy boshlaydi, va natijada shamollash bilan bog'liq xastaliklar kelib chiqadi.

Mikroiqlim parametrlarini normallashtirish va saqlashning eng mukammal va maqbul usuli konditsionerlashdir. Konditsionerlar yordamida ma'lum bir xona uchun zarur bo'lgan mikroiqlim parametrlari oldindan o'rnatiladi va keyin saqlanadi: havo harorati, uning nisbiy namligi va havo tezligi. Bundan tashqari, havo ionizatsiyasi, dezodoratsiya, ozonatsiya va x.k.lar konditsioner yordamida amalga oshiriladi.

Har qanday konditsionerning asosiy xarakteristikasi uning quvvati (aniqrog'i,sovutish quvvati) hisoblanadi. Konditsionerning quvvatini aniq hisoblash juda muhim. Sovutish quvvatning yetarli emasligi issiq havoda xonaning

yeterli darajada sovita olmaganligi tufayli ishlab chiqarishdagi ishchi xodimlar va asbob-uskunalar ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan namoyon bo'lishi mumkin. Haddan tashqari kuchlisovutish xam sovuq havo kuchli oqimini yaratadi va ishchilarni shamollashiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, konditsioner tez-tez yonadi va o'chadi, bu esa kompressorning ishdan chiqishiga olib keladi va u ko'proq xarajattalab qiladi. Shamollatish va isitish tizimi QMQ 2.04.05-97 «Isitish, shamollatish va konditsionerlash» talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

4.3. Ishchi xonada konditsionerdan foydalanish zarurligini asoslash bo'yicha dastlabki ma'lumotlar

4-amaliy mashqning sharti:

1. Ishchi xonada konditsionerdan foydalanish zarurligini asoslang (1.1.1-jadvaldagi variantingiz asosida).
2. Konditsioner quvvatini hisoblang (4.4 - bo'limga qarang).
3. Aniq bir konditsionerni tanlang, (2 - ilovadan).

4.4. Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Maishiy konditsionerning taxminiyl quvvati Q (Vt) qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = Q_{is.oqim} + Q_{is.tarqalishi}, \quad (4.1)$$

bu yerda $Q_{is.oqim}$ – issiqlik oqimi, Vt .

$$Q_{is.oqim} = S \cdot h \cdot k, \quad (4.2)$$

bu yerda: S – xona yuzasi, m^2 ; h – xona balandligi, m ;

k – koeffitsiyent, $30-40 \text{ } Vt/m^3$:

- quyosh nuri ko'p tushadigan xona uchun $k = 40 \text{ } Vt/m^3$ ga teng;
- ko'p soya tushadigan xona uchun $k = 30 \text{ } Vt/m^3$ ga teng;
- o'rtacha yoritilgan xona uchun $k = 35 \text{ } Vt/m^3$ ga teng.

$Q_{is.tarqalishi}$ – issiqlik tarqalishi, Vt ,

$$Q_{is.taqlishi} = q_{inson} + q_{el.jihoz}, \quad (4.3)$$

bu yerda: q_{inson} – insonlar chiqaradigan issiqlik, tinch holatda bir kishi 0,1 kVt issiqlik chiqaradi; $q_{el.jihoz.}$ – elektr jihozlari ishlab chiqaradigan issiqlik (kompyuter yoki nusxa ko'chirish qurilmasi 0,3 kVt quvvat chiqaradi, boshqa qurilmalar uchun nominal quvvatning 1/3 qismini issiqlik shaklida chiqaradi deb hisoblash mumkin).

Issiqlik tarqalishi va issiqlik oqimlarini jamlab, kerakli sovutish quvvati olinadi:

$$Q = S \cdot h \cdot k + q_{inson} + q_{el.jihoz.}, \quad (4.4)$$

Olingan natijada asosida, 2-ilovadan olingan quvvatga yaqin konditsioner modelini tanlang.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab konditsioner ishlab chiqaruvchilarining konditsionerlarini markirovkalashda konditsioner quvvati odatdagi kilovattlarda emas, balki BIB – Britaniyaning issiqlik birligi bo'lgan BIB/soatda ko'rsatiladi. 1BIB/soat = 0,3 vatt.

4.5. Ishlovchilar uchun maqbul mikroiqlim ko'rsatkichlarini ta'minlash tadbirlari

1. Konditsionerlarni o'rnatish va ishlatish.
2. Havo almashtirish qurilmalarini rostlash va ishlatish.
3. Isitish tizimini to'g'rilash.
4. Issiqlikn ni to'suvchi to'siqlar qilish.
5. Ish va dam olishning ratsional rejimini ishlab chiqish.
6. Masofadan boshqarish va kuzatish.
7. Asbob-uskunalarni maqbul joylashtirish.
8. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.
9. Yangi texnologik jarayonlarni tadbiq qilish.
10. Shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash.

4.6. Nazorat savollari

1. Mikroiqlim ko'rsatkichlari qanday kattaliklar bilan xarakterlanadi?

2. Termoregulyatsiya jarayoni nima va uning qanaqa turlari mavjud?
3. Inson tanasidan atrofga issiqqliq uzatishning qanaqa turlari bor?
4. Mikroiqlim ko'rsatkichlarini me'yorlashda ish og'irligi qanaqa ahamiyatga ega?
5. Yilning sovuq davri qanday aniqlanadi?
6. Mikroiqlim ko'rsatkichlari qanaqa me'yorlanadi?
7. Havo bosimi qanday asboblar bilan o'lchanadi?
8. Havo harorati qanday asboblar va uslubda o'lchanadi?
9. Havo harakat tezligi qanday asboblar bilan o'lchanadi?
10. Anemometrlar bilan havo harakat tezligini o'lhash uslubi qanday?
11. Katatermometrlar bilan havo harakat tezligini aniqlash uslubi qanday?
12. Havoning absolyut, maksimal va nisbiy namliklari nima?
13. Nisbiy namlik qanaqa usullar va asboblar bilan aniqlanadi?
14. Aspiratsion psixrometr yordamida absolyut namlik qanday aniqlanadi?

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA SHOVQIN INTENSIVLIGINI HISOBLASH

5.1. Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblashdan maqsad:

Shovqinni yutuvchi materiallar qo'llanilmaganda va qo'llanilganda shovqin intensivligini aniqlash. Shovqin manbasihacha masofani, devor-to'siqlarni hisobga olgan holda umumiy shovqin darajasini aniqlashni o'rganish. Xulosalar chiqarish.

5.2. Nazariy ma'lumotlar

Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash vositalari taraqqiyoti o'z ishi davomida mexanik tebranish (silkinish) hosil qiluvchi uskunalar qo'llash bilan bog'liq. Mexanik tebranishlarning inson organizmiga ta'siri chastota, tebranish uzatiladigan jadallik va muhitga bog'liq tarzda turlicha namoyon bo'ladi. Tebranish shovqin va silkinishga bo'linadi².

Eshitiladigan chastotalar diapazonida uzatiladigan mexanik tebranishlar inson tomonidan tovush sifatida qabul qilinadi. Chastota bo'yicha tovush tebranishlari 3 diapazonga bo'linadi:

1. Infratovushli $f < 20 \text{ Hz}$;
2. Tovushli (eshitiladigan) $20 \text{ Gs} < f < 20 \text{ kHz}$;
3. Ultratovushli $f > 20 \text{ kHz}$.

Shovqin – turli chastota va tezlikdagi tovushlarning tartibsiz birikmasidir. Shovqin mexanik, aerodinamik, gidrodinamik va elektromagnit kelib chiqishiga ega bo'lishi mumkin.

Mexanik shovqin – ayrim detallar va umuman uskunalarning tebranishlari, zorbaliqi oqibatidandir.

Aerodinamik shovqin manbai gazlardir.

² Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya. Sapaev M.S., Qodirov F.M. O'quv qo'llanma, Toshkent-“Aloqachi”-2019, 276 b.

Gidrodinamik shovqin – suv va boshqa suyuqliklarning harakati oqibatida kelib chiqadi.

Elektromagnit shovqin – o‘zgaruvchan magnit kuchlarining elektromexanik qurilmalarga ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Tovush tezligi – vaqt birligida to‘lqin tarqalish yo‘nalishiga perpendikulyar, yagona yuza orqali tovushli to‘lqin bilan ko‘chadigan quvvat.

Inson tovushlarni tezliklarning keng diapazonida qabul qiladi. Turli chastotalardagi tovushlar bir xil qabul qilinmaydi. Insonning eshitish ostonasiga $f=1000\text{ Hz}$ va tezligi $I=10-12\text{ Vt/m}^2$ tovush mos keladi.

O‘lchov va me’yorlashtirilgan birliklari

Me’yorlashtirilgan doimiy bo‘lmagan shovqin tovushining ekvivalent darajasi L_{Aekv} , dBA va tovushni maksimal darajasi L_{Amaks} , dBA hisoblanadi. Ruxsat etilgan shovqin darajasiga muvofiqligi bir vaqtda ikkita ko‘rsatgich bilan baholanadi, bitta ko‘rsatgich yuqori bo‘lsa, bu holat hujjatda belgilangan me’yorga javob bermaydi deb hisoblanadi.

Doimiy bo‘lgan shovqinni me’yoriy darajasi tovush bosimi darajasi L , dBA hisoblanadi, chastotalarni oktava chiziqlarida 31,5, 63, 125, 250, 500, 1000, 2000, 4000, 8000 Hz li o‘rtacha geometrik chastotalar bilan (tovush bosimini oktava darajalari), mo‘ljallangan baholash uchun tovushni umumiy darajasi L_A , dBA .

Turar joylar va jamoat binolarida (fortochkalarda, framugalarda, derazalardan birining tabaqasi ochiq holda) va aholi yashash hududlarida ekvivalent tovush darajasi (tashqi, ichki manbalarda) va tovush bosimining oktavalar bo‘yicha ruxsat etilgan darajalari shovqin tavsifi va kunduzgi yoki tungi vaqtlar hisobga olgan holda 5.1-jadvalda berilgan.

5.1-jadval

Tovush bosimining ruxsat etilgan darajalar³

| T/r | Bino yoki hududlarning nomlari | Sutkaning vaqtлари | Tovush bosimi darajalari, dB, o‘rtacha geometrik chastotlar bilan oktava bandlari chastotalarida, Gts | | | | | | | | | | Tovush darajalari, L_A va tovushni ekvivalent darajalari, $L_{Aekv.}$, dB Tovushni maksimal darajalari, dBA |
|-----|--|---------------------------|---|----|-----|-----|-----|------|------|------|------|----|--|
| | | | 31,5 | 63 | 125 | 250 | 500 | 1000 | 2000 | 4000 | 8000 | | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| 1. | Shifoxona, klinika va sanatoriylar palatalari hamda operatsiya xonalari | soat 7 dan 23 gacha | 76 | 59 | 48 | 40 | 34 | 30 | 27 | 25 | 23 | 35 | 50 |
| | | soat 23 dan 7 gacha | 69 | 51 | 39 | 31 | 24 | 20 | 17 | 14 | 13 | 25 | 40 |
| 2. | Poliklinika, ambulatoriya, dispanser, shifoxona, sanatoriylar va klinikalardagi vrachlar xonalarida | - | 76 | 59 | 48 | 40 | 34 | 30 | 27 | 25 | 23 | 35 | 50 |
| 3. | Sinf, o‘quv va o‘qituvchilarni ng xonalarini ta’lim muassasalarini auditoriyalari, anjumanlar va seminarlar o‘tkazish uchun zallar, masjidlar, kutubxonalar o‘qish zallarida | - | 79 | 63 | 52 | 45 | 39 | 35 | 32 | 30 | 28 | 40 | 55 |

³ "Turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashash hududlarida va dam olish zonalarida ruxsat etilgan shovqin darajasining sanitariya qoidalari va me'yorlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirining qarori" №0008-20, 29.12.2020 yil.

| <i>1</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> | <i>9</i> | <i>10</i> | <i>11</i> | <i>12</i> | <i>13</i> | <i>14</i> |
|----------|--|---------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 4. | Xonadonlarnin g yashash xonalari, dam olish uylari, pansionatlar, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha ta'lif muassasalari va maktab-internatlarining yotoqxonalarida | soat 7 dan 23 gacha | 79 | 63 | 52 | 45 | 39 | 35 | 32 | 30 | 28 | 40 | 55 |
| | | soat 23 dan 7 gacha | 72 | 55 | 44 | 35 | 29 | 25 | 22 | 20 | 18 | 30 | 45 |
| 5. | Mehmonxona va kempinglar xonalari va yotoqxonalarining yashash xonalarida | soat 7 dan 23 gacha | 67 | 57 | 49 | 44 | 40 | 37 | 35 | 33 | 45 | 60 | |
| | | soat 23 dan 7 gacha | 76 | 59 | 48 | 40 | 34 | 30 | 27 | 25 | 23 | 35 | 50 |
| 6. | Kafe, restoran, bar va oshxonalarning ovqatlanish zallarida | - | 90 | 75 | 66 | 59 | 54 | 50 | 47 | 45 | 43 | 55 | 70 |
| 7. | Bozorlar hududlarida, do'konlarning savdo zallarida, aeroport va vokzallarning yo'lovchilar zallarida, maishiy xizmat korxonalari qabul punktlarida | - | 93 | 79 | 70 | 63 | 59 | 55 | 53 | 51 | 49 | 60 | 75 |
| 8. | Shifoxona, klinika va sanatoriylar bilan bevosita tutashgan hududlarda | soat 7 dan 23 gacha | 83 | 67 | 57 | 49 | 44 | 40 | 37 | 35 | 33 | 45 | 60 |
| | | soat 23 dan 7 gacha | 76 | 59 | 48 | 40 | 34 | 30 | 27 | 25 | 23 | 35 | 50 |

| <i>I</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> | <i>9</i> | <i>10</i> | <i>11</i> | <i>12</i> | <i>13</i> | <i>14</i> |
|----------|--|---------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 9. | Aholi yashaydigan uylar, poliklinikalar, ambulatoriyalar, dispansyerlar, dam olish uylari, pansionatlar, qariyalar va nogironlar uchun internat uylar, maktabgacha ta'lim muassasalari, mактаб va boshqa o'quv yurtlari hamda kutubxonalar bilan bevosita tutashgan hududlarda | soat 7 dan 23 gacha | 90 | 75 | 66 | 59 | 54 | 50 | 47 | 45 | 43 | 55 | 70 |
| | | soat 23 dan 7 gacha | 83 | 67 | 57 | 49 | 44 | 40 | 37 | 35 | 33 | 45 | 60 |
| 10. | Mehmonxonalar, kempinglar va yotoqxonalar binolari bilan bevosita tutashgan hududlarda | soat 7 dan 23 gacha | 93 | 79 | 70 | 63 | 59 | 55 | 53 | 51 | 49 | 60 | 75 |
| | | soat 23 dan 7 gacha | 86 | 71 | 64 | 54 | 49 | 45 | 42 | 40 | 39 | 50 | 65 |
| 11. | Shifoxona, klinika va sanatoriylar hududlaridagi dam olish joylarida | - | 79 | 63 | 52 | 45 | 39 | 35 | 32 | 30 | 28 | 40 | 55 |

Izoh. Tashqi hamda ichki manbalardan hosil bo'layotgan shovqin impulsli yoki tonal tavsifga kiradi, jadvalda ko'rsatilgan me'yorlarga qaraganda 5dBA dan past qabul qilinadi.

5.3. Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblashda dastlabki ma'lumotlar

5-amaliy mashqning 1-sharti:

Devor materiali va shovqin manbaidan masofani (*R*) hisobga olgan holda turar-joydagи shovqin darajasini aniqlang.

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametrlari | Variantlar | | | | | | | | | | | | | | |
|--|------------|----|----|----|-----|----|-----|----|----|----|----|-----|----|----|-----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | |
| Shovqin darajasi <i>L, dB</i> | 80 | 75 | 90 | 95 | 100 | 85 | 110 | 90 | 95 | 80 | 95 | 110 | 75 | 85 | 110 |
| to 'siq-devor № | 1 | 2 | 3 | 4 | 1 | 2 | 3 | 4 | 1 | 4 | 1 | 2 | 2 | 2 | 4 |
| to 'siq-devor № | 9 | 10 | 11 | 9 | 10 | 9 | 10 | 9 | 10 | 0 | 10 | 10 | 10 | 9 | 11 |
| to 'siq-devor № | 13 | 14 | 13 | 14 | 11 | 14 | 14 | 13 | 12 | 14 | 13 | 11 | 14 | 14 | 12 |
| Devorgacha bo'lgan masofa, <i>R, m</i> | 10 | 15 | 20 | 25 | 25 | 15 | 25 | 15 | 10 | 20 | 10 | 22 | 30 | 20 | 30 |

5-amaliy mashqning 2-sharti:


Dasturiy ta'minot muhandisining ish joyidagi uchta manbadan umumiyl shovqin darajasini aniqlang. Shovqin darajasini pasaytirish choralarini taklif qilish, shovqin darajasini pasaytirishni hisoblash.

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari | Variantlar | | | | | | | | | | | | | | |
|--------------------------------------|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | |
| <i>L₁, dB</i> | 70 | 80 | 85 | 90 | 90 | 100 | 100 | 80 | 80 | 90 | 85 | 90 | 90 | 100 | 100 |
| <i>L₂, dB</i> | 100 | 90 | 80 | 70 | 70 | 70 | 80 | 70 | 90 | 100 | 80 | 70 | 70 | 70 | 80 |
| <i>L₃, dB</i> | 95 | 70 | 95 | 85 | 95 | 90 | 95 | 90 | 85 | 80 | 95 | 85 | 95 | 90 | 95 |
| <i>R₁, m</i> | 2,5 | 2 | 3 | 3,5 | 4 | 3 | 2,5 | 3 | 4 | 4,5 | 3 | 3,5 | 4 | 3 | 2,5 |
| <i>R₂, m</i> | 7 | 7,5 | 8 | 8,5 | 9 | 9,5 | 8,5 | 8,5 | 8 | 7,5 | 8 | 8,5 | 9 | 9,5 | 8,5 |
| <i>R₃, m</i> | 7 | 6,5 | 6 | 5,5 | 5 | 4,5 | 4 | 3,5 | 3 | 2,5 | 6 | 5,5 | 5 | 4,5 | 4 |
| <i>S_{nm}, m²</i> | 100 | 150 | 200 | 250 | 300 | 350 | 400 | 450 | 500 | 550 | 200 | 250 | 300 | 350 | 400 |
| <i>S_c, m²</i> | 160 | 180 | 200 | 220 | 250 | 260 | 280 | 300 | 320 | 340 | 200 | 220 | 250 | 260 | 280 |
| $\alpha_1 \cdot 10^{-3}$ | 20 | 25 | 30 | 35 | 40 | 45 | 40 | 35 | 30 | 25 | 30 | 35 | 40 | 45 | 40 |
| $\alpha_2 \cdot 10^{-2}$ | 95 | 90 | 85 | 80 | 75 | 70 | 75 | 80 | 85 | 90 | 85 | 80 | 75 | 70 | 75 |
| $\beta_1 \cdot 10^{-3}$ | 34 | 33 | 32 | 31 | 30 | 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 32 | 31 | 30 | 31 | 32 |
| $\beta_2 \cdot 10^{-2}$ | 75 | 80 | 85 | 90 | 95 | 90 | 85 | 80 | 75 | 70 | 85 | 90 | 95 | 90 | 85 |

Devor-to'siqlar xarakteristikasi

| Nº | Materiallar va konstruksiyalar | Konstruksiyaning qaliligi, m | $1/m^2$ to'siqning og'irligi, kg |
|-----|---|------------------------------|----------------------------------|
| 1. | G'isht devor | 0,12 | 250 |
| 2. | G'isht devor | 0,25 | 470 |
| 3. | G'isht devor | 0,38 | 690 |
| 4. | G'isht devor | 0,52 | 934 |
| 5. | Bir necha qatlamlı karton | 0,02 | 12 |
| 6. | Bir necha qatlamlı karton | 0,04 | 24 |
| 7. | Voylok | 0,025 | 8 |
| 8. | Voylok | 0,05 | 16 |
| 9. | Temirbeton | 0,1 | 240 |
| 10. | Temirbeton | 0,2 | 480 |
| 11. | Shlakobetonli devor | 0,14 | 150 |
| 12. | Shlakobetonli devor | 0,28 | 300 |
| 13. | Ikki tomoni suvalgan, 0,02 mmli taxtalardan (doska) iborat to'siq | 0,06 | 70 |
| 14. | Ikki tomoni suvalgan, 0,1 mmli taxtalardan (doska) iborat to'siq | 0,18 | 95 |
| 15. | Gipsli to'siq | 0,11 | 117 |



5.1-rasm. Shovqin manbalarini joylashuvi

5.4. Hisoblash uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Har qanday istalmagan tovush shovqin deb ataladi. Shovqin sog'liq uchun zararli, ish faoliyatini pasaytiradi, shikastlanish darajasini oshiradi. Shuning uchun shovqindan himoya qilish choralarini ko'rish kerak.

Shovqinni turli usullar bilan kamaytirish mumkin: shovqinni hosil bo‘ladigan manbasida kamaytirish; shovqinni tarqalish yo‘lida so‘ndirish; masofadan boshqarish qurilmalaridan foydalanish; shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish; profilaktik tadbirlar yordamida. Sanoat binolaridagi shovqinni devor va shiftlarni tovushni yutuvchi materiallar (g'ovakli gips, teshilgan, zinch g'ovakli mato) bilan qoplash orqali sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

1. Masofani hisobga olgan holda shovqin darajasini hisoblash formulalar orqali amalga oshiriladi:

$$L_{R1} = L_1 - 20 \cdot \lg \cdot R_1 - 8, dB, \quad (5.1)$$

$$L_{R2} = L_2 - 20 \cdot \lg \cdot R_2 - 8, dB, \quad (5.2)$$

$$L_{R3} = L_3 - 20 \cdot \lg \cdot R_3 - 8, dB, \quad (5.3)$$

Shovqinning umumiy intensivligi 6.4-formula bo'yicha ketma-ket aniqlanadi:

$$L_{\Sigma 1,2,3} = L_A + \Delta L, dB, \quad (5.4)$$

bu yerda: L_A – 2 ta qo’shilgan darajaning eng kattasi, dB;

ΔL – 5.5-jadvalga muvofiq belgilanadigan darajalar farqiga qarab tuzatish:

5.5-jadval

| $L_A - L_B, dB$ - manbalar darajasidagi farq | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 15 | 20 |
|--|-----|-----|-----|-----|-----|-----|---|-----|-----|-----|-----|-----|----|
| Tuzatish ΔL | 3,0 | 2,5 | 2,0 | 1,8 | 1,5 | 1,2 | 1 | 0,8 | 0,6 | 0,5 | 0,4 | 0,2 | 0 |

Masalan: $L_{R1}=85$ dB; $L_{R2}=95$ dB; $L_{R3}=100$ dB;

$L_{R1} < L_{R2} \rightarrow 85 < 95$;

95 - taqqoslangan darajalarning eng yuqori darajasi;

L_{R1} (L_A) va L_{R2} (L_V) ni farqi ($L_{R1}-L_{R2}=85-95=10$) orqali 5.5-jadvaldan tuzatishni topamiz. Bizning misolda tuzatish 0,4 ga teng.

$$L_{\Sigma 1,2}=95+0,4=95,4 \text{ dB.}$$

Olingan natijani ($L_{\Sigma 1,2}$) L_{R3} bilan taqqoslashni davom ettiramiz ($L_{\Sigma 1,2}$ va L_{R3}).

$L_{\Sigma 1,2}$ (L_A) va L_{R3} (L_B) ni farqi ($L_{\Sigma 1,2}-L_{R3}=95,4-100\approx 5$) orqali 5.5-jadvaldan tuzatishni topamiz. Bizning misolda tuzatish 1,2 ga teng.

$$L_{\Sigma 1,2,3}=100+1,2=101,2 \text{ dB}$$

bu yerda: 100 - taqqoslangan darajalarning eng kattasi.

Olingan natija standart daraja bilan taqqoslanadi – dasturiy ta'minot muhandisining ish joyi uchun 50 dB. Agar shovqin darajasi standartdan oshsa, quyidagi himoya choralari taklif etiladi:

a) devor va shiftlarni qoplash uchun ovoz o'tkazmaydigan materiallardan foydalanish;

b) ish joyini devor-to'siq orqasida ko'chirish;

a) shartimiz o'lchovidan foydalanish uchun dastlabki ma'lumotlar 5.2-jadvalda keltirilgan:

α_1, α_2 – mos ravishda, tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan oldin va keyingi shift materialining tovush yutish koeffitsiyentlari;

β_1, β_2 – mos ravishda, tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan oldin va keyingi devor materialining tovush yutish koeffitsiyentlari;

γ – polning tovush yutish koeffitsiyenti. Pol tovush yutuvchi material bilan qoplanmaydi. Hisoblashda polning tovush yutish koeffitsiyenti $\gamma=0,061$ ga teng qilib olinadi.

Devor va shiftning tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan oldingi tovushni yutishi birligi:

$$M_I = S_{sh} \cdot \alpha_1 + S_d \cdot \beta_1 + S_p \cdot \gamma, \quad (5.5)$$

Devor va shiftning tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan keyingi tovushni yutishi birligi:

$$M_2 = S_{sh} \cdot \alpha_2 + S_d \cdot \beta_2 + S_p \cdot \gamma, \quad (5.6)$$

Pol va shift yuzalari teng.

Shovqinning intensivligini kamaytirish qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K = 10 \lg \frac{M_2}{M_1}, dB \quad (5.7)$$

Materiallardan foydalanishni hisobga olgan holda, 5.8-formula bo'yicha umumiy tovush sathini aniqlaymiz:

$$L_M = L_{I,2,3} - K, dB \quad (5.8)$$

bu yerda: L_M – tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan keyingi tovush sathi; $L_{I,2,3}$ – ish joyidagi 3 ta manbaning jami tovush sathi.

Olingan natijalar standart qiymat bilan taqqoslanadi. Tovush sathi standartga mos keladigan bo'lsa, hisoblashni shu yerda to'xtatish mumkin. Agar mos kelmasa, b) shartdagi o'lchov qo'llaniladi.

b) shartdagi o'lchovdan foydalanish uchun dastlabki ma'lumotlar 5.4-jadvalda keltirilgan (uchta ixtiyoriy dastlabki ma'lumot olamiz):

Agar shovqin manbai va ish joyi o'rtaida devor to'sig'i mavjud bo'lsa, shovqin intensivligi darajasi N, dB ga kamayadi:

$$N = 14.5 \cdot \lg \cdot G + 15, dB \quad (5.9)$$

bu yerda: G – bir metr kvadratdagi (m^2) devor to'sig'i massasi, kg .

Devor-to'siqlarni hisobga olgan holda ish joyidagi shovqin darajasini aniqlash 5.10-formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$L_N = L_{\Sigma I,2,3} - N, dB \quad (5.10)$$

Shunday qilib, ish joyidagi yakuniy shovqin darajasi qo'yidagicha aniqlanadi:

$$L_N = L_M - N = L_{\Sigma I,2,3} - K - N, dB \quad (5.11)$$

Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra xulosalar chiqaring.

2. Shovqin manbasidan R masofada joylashgan devor materialini hisobga olgan holda turar-joydagi shovqin darajasini aniqlang.

Oraliq masofani hisobga olgan holda tovush sathi 5.12-formula orqali aniqlanadi:

$$L_R = L_{ekv} - 20 \lg \cdot R - 8, dB \quad (5.12)$$

Uyning devorlari ortidagi tovush sathi 5.13-formula orqali aniqlanadi:

$$N = 14.5 \cdot \lg \cdot G + 15, dB \quad (5.13)$$

Masofa va to'siq devorini hisobga olgan holda tovush sathi 5.14 - formula orqali aniqlanadi:

$$L_N = L_R - N, dB \quad (5.14)$$

Turar-joy va jamoat binolarida ruxsat etilgan shovqin darajalari bilan solishtiring (turar-joy binolaridagi shovqin darjasasi kunduzi kamida 30 dBA va kechasi 40 dBA bo'lishi kerak).

Shovqin darajasini standart qiymatlarga kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiling, shu jumladan yashil maydon chizig'idan foydalaning (5.6-jadval).

5.6-jadval
Dastlabki ma'lumotlar

| Yashil maydon chizig'i | Maydon kengligi | Shovqin darajasini kamayishi, $L_{A,yashil\ maydon}, dBA$ |
|---|-----------------|--|
| Bir qator qilib daraxtlarni ekish (shaxmat shaklida) | 10-15 | 4-5 |
| Bir qator qilib daraxtlarni ekish (shaxmat shaklida) | 16-20 | 5-8 |
| Ikki qatorli qilib daraxtlarni ekish (qatorlar orasidagi masofa 3-5 m, qatorlar bir qatorli ekishga o'xshaydi) | 21-25 | 8-10 |
| Ikki yoki uch qatorli qilib daraxtlarni ekish (qatorlar orasidagi masofa 3 m, qatorlar bir qatorli ekishga o'xshaydi) | 26-30 | 10-12 |

Eslatma: Daraxtlarning balandligi kamida 5-6 m bo'lishi kerak.

5.5. Nazorat savollari

1. Shovqin deb nimaga aytildi?

2. Shovqin tasnifi va uni meyorlashtirish.
3. Shovqin odamga qanday ta'sir qiladi?
4. Shovqinning intensivligi, intensivlik darajasi nima?
5. Eshitish chegarasi, og'riq chegarasi nima?
6. Shovqin ta'siridan qanday himoya choralarini mavjud?
7. Shahar shovqini, yashash muhiti shovqinlarining asosiy manbalari nimalardan iborat?
8. Shovqinni yutish va to'sish tadbirlari samaradorligini aniqlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
9. Shovqin sathini kamaytirish bo'yicha qanday muxandislik echimlari qo'llaniladi?
10. Ishlab chiqarishda shovqin ta'sirini kamaytirish qanday tadbirlar orqali amalga oshiriladi?
11. Inson organizmiga shovqining ta'sirini tushuntiring, me'yorlar bo'yicha ruhsat etiladigan shovqinlar sathlarini va himoya choralarini ayting.

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA YORITILGANLIKNI HISOBLASH

6.1. Mashg'ulotning maqsadi:

Ishlab chiqarish xonasida chiroqlar sonini, yoritish moslamasining quvvatini aniqlash, xonaga chiroqlarni joylashtirish metodologiyasini o'zlashtirish.

6.2. Nazariy ma'lumotlar.

Ishlab chiqarish binolari va ish joylarini yoritish. Yoritilganlik haqida umumiy ma'lumotlar. Yoritilganlik insonning tashqi muhit bilan boglanishini aniqlovchi va inson miyasiga keluvchi tashqi dunyo to‘g‘risidagi ma'lumotlarning sifatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. To‘g‘ri va me’riy miqdordagi yoritilganlik ish qurollari va jihozlarning rangini, o‘lchamlarini tezda aniqlashga imkon beradi va ishchining mehnat qobiliyatini uzoq muddatgacha saqlanib qolishiga, mehnat unumdorligining oshishiga, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatli bo‘lishiga sharoit yaratib, mehnat xavfsizligini oshiradi.

Ish xonalari va joylarini yoritishga asosan quyidagi talablar belgilangan:

- ish ob’ektlarini tez va engil farqlash imkoniyatini berishi zarur;
- yoritilganlik bir tekis bo‘lishi, hech qanday keskin soya bermasligi lozim;
- ob’ekt va u joylashgan joy rangi (fon) orasida ma'lum darajada farq (“kontrast”) bo‘lishi kerak;
- yorug‘lik manbai ko‘riladigan ob’ektda hech qanday yorug‘lik qaytishini (yaltirashlar)hosil qilmasligi kerak;
- yorug‘lik manbai ishchi ko‘zini qamashtirmasligi lozim;
- ishchi yuzalarning yoriliganlik darajasi vaqt oralig‘ida o‘zgarmasligi zarur.

Yoritilganlikka qo‘yilgan ushbu talablar nafaqat tadqiqotlarda, balki amaliyotda ham o‘z isbotini topgan. Me’yoriy yoritilganlik faqat yorug‘lik oqimiga bog‘liq bo‘lmasdan, yorug‘likni xona shipi va devoridan qaytishiga, fon bilan buyum orasidagi kontrast (ranglar farqi)ga ham bog‘liq holda belgilanadi. Masalan,

qora ipni qora fonda ko‘rish uchun oq rangda joylashgan fonga nisbatan kamida ming marta katta yoritilganlik talab etiladi.

Yoritilganlikning asosiy yorug‘lik-texnik ko‘rsatkichlari. Yoritilganlikning yorug‘lik-texnik ko‘rsatkichlariga yorug‘lik, yorug‘lik oqimi (F , *lyumen*), yorug‘lik kuchi (I , *kandela*), yoritilganlik (E , *lyuks*), ravshanlilik (l , kd/m^2), va yorug‘likni qaytarish koeffitsiyenti (α , %) kiradi. Sifat ko‘rsatkichlariga esa fon, ob‘ektni fon bilan farqlash kontrasti, pulsatsiya koeffitsiyentini kiritish mumkin.

Yorug‘lik – elektromagnit spektrini ko‘zga ko‘rinadigan sohasining bir qismi hisoblanadi. Uning asosiy xarakteristikasi sifatida to‘lqin uzunligi (λ) va tebranish chastotasi (v) qabul qilingan. Bu ko‘rsatkichlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$\lambda = \frac{s}{v}, \quad (6.1)$$

bu yerda: s – yorug‘likning tarqalish tezligi.

Ko‘zning ko‘rish darajasi spektrning ko‘rinadigan sohasini har xil qismida turlicha bo‘lib, spektrning yashil oblastida, to‘lqin uzunligi $\lambda=554\ nm$ bo‘lgan holatda maksimal hisoblanadi.

Yoritilganlikning asosiy yorug‘lik – texnik ko‘rsatkichlariga yorug‘lik kuchi, yoritilganlik, yorug‘likni yutish, o‘tkazish va qaytarish koeffitsiyenti, yorug‘lik ravshanliligi, ob‘ektning fon bilan kontrasti (ob‘ekt bilan asosiy rang orasidagi keskin farq), yoritilganlikning pulsatsiya koeffitsiyenti va yoritilganlikning notyokislik koeffitsiyenti kiradi.

Yorug‘lik kuchi (J) – yorug‘lik oqimining yorug‘lik tarqaladigan burchakga nisbati orqali ifodalanadi:

$$J = \frac{dF}{d\omega}, \quad (6.2)$$

Yorug‘lik kuchining o‘lchov birligi qilib kandela (K_d) qabul qilingan.

Yorug‘lik oqimi (F) – yorug‘lik quvvati orqali xarakterlanadi va lyumenda (lm) o‘lchanadi.

Yoritilganlik (E) – yorug‘lik oqimining sirt bo‘ylab zichligi bo‘lib, lyuks (lk) da o‘lchanadi.

Yoritilganlikni qaytarish, yutish, o‘tkazish koeffitsiyentlari. Yoritilganlik sifati yoritilganlik miqdori va yoritiluvchi yuzaning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Yoritiluvchi yuzaning yorug‘lik oqimini qaytarish, yutish va o‘tkazish xususiyatlari yorug‘likni qaytarish α_s , yutish β_s va o‘tkazish γ_s koeffitsiyentlari orqali baholanadi. Ushbu koeffitsiyentlar quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_s = \frac{F_\alpha}{F}, \quad \beta_s = \frac{F_\beta}{F}, \quad \gamma_s = \frac{F_\gamma}{F}, \quad (6.3)$$

bu erda: F – yoritiladigan yuzaga tushadigan yorug‘lik oqimi; F_α , F_β , F_γ – mos holda, yoritiladigan yuzadan qaytgan, yutilgan va o‘tkazilgan yorug‘lik oqimi, lm.

Ravshanlilik, kontrast va fon. Yoritiladigan yuzaning asosiy xarakteristikalaridan biri yorug‘likni qaytarish xususiyati hisoblanadi va bu yuzaning ravshanligi («yarkost») ga bog‘liq bo‘ladi. Ravshanlilikning o‘lchov birligi qilib N_t (Nt) qabul qilingan. Buyum sirti (yuzasi) dagi ravshanlilik bilan umumiyl atrof foni (rangi) orasidagi keskin farq kontrast deb ataladi. Fon deb farqlanadigan ob’ektga taaluqli yuzaning, ya’ni ushbu ob’ekt (buyum) joylashgan yuzaning rangiga aytildi. Fon yorug‘lik oqimini qaytarish xususiyati bilan xarakterlanadi va $\alpha_s > 0,4$ bo‘lganda yorug‘, $\alpha_s = 0,2 \dots 0,4$ bo‘lganda o‘rta, $\alpha_s < 0,2$ bo‘lganda qora hisoblanadi.

Fonga bog‘liq holda kontrast $K_0 > 0,5$ bo‘lsa yuqori, $K_0 = 0,2 \dots 0,5$ bo‘lsa o‘rtacha, $K_0 < 0,2$ bo‘lsa kichik hisoblanadi.

Yoritilganlikning pulsatsiya koeffitsiyenti (K_{PK}) – o‘zgaruvchan tok bilan ishlovchi gazorazryadli chiroqlarda yorug‘likning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan yoritilganlik tebranishining nisbiy chuqurligi orqali baholanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{PK} = \frac{E_{max} - E_{min}}{2 \cdot E_{o'r}} \cdot 100\%, \quad (6.4)$$

bu yerda: E_{max} , E_{min} , $E_{o'r}$ – tebranish davridagi maksimal, minimal va o‘rtacha yoritilganlik.

Yoritilganlik pulsatsiya koeffitsiyenti (K_{PK}) 10...20% bo‘lishi lozim.

Yoritilganlikning notekistlik koeffitsiyenti (K_{NK}) – ishchi yuzadagi minimal va maksimal yoritilganliklarning nisbati orqali ifodalanadi:

$$K_{NK} = \frac{E_{min}}{E_{max}} \cdot 100\%, \quad (6.5)$$

Yoritish tabiiy va sun’iy usullarda bo‘ladi. Agar tabiiy yoritish to‘g‘ri loyihalashtirilsa va me’yor darajasida bo‘lsa inson uchun eng qulay ish sharoiti yaratiladi.

Tabiiy yoritish. Tabiiy yoritish yorug‘lik o‘tkazish yo‘llariga bog‘liq holda yon tomonlama, yuqori tomonlama va kombinatsiyalashgan, ya’ni ham yon ham yuqori tomonlama bo‘lishi mumkin.

Tabiiy yoritish darajasi kunning vaqtiga va iqlimiylar sharoitlarga bog‘liq holda ish vaqtida o‘zgarishi hisobli, ish joyining yoritilganligi bilan emas, balki tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti orqali me’yorlashtiriladi.

Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti deb xona ichidagi biror nuqtaning yoritilganligini shu vaqtdagi tashqi muhit yoritilganligiga nisbatining foizdagi ifodasiga aytildi:

$$e_{min} = \frac{E_{ichki}}{E_{tashqi}} \cdot 100\%, \quad (6.6)$$

bu yerda: E_{ichki} – xona ichining biror nuqtasidagi yoritilganlik, lk; E_{tashqi} – tashqi muhitdagi ochiq maydondagi yoritilganlik, lk.

Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti (e) n tomonlama yoritilganlikda $e_{o'rtacha} \geq 80\%$ e_n ; yuqori tomonlama va kombinatsiyalashgan yoritilganlikda $e_{o'rtacha} \geq 60\%$ e_n bo‘lsa yaxshi hisoblanadi. Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti

yorug‘likning iqlimi koeffitsiyentiga bog‘liq bo‘ladi. Uning miqdori ish razryadiga, farqlash ob’ektining eng kichik o‘lchamiga hamda iqlimning yorug‘lik poyasiga bog‘liq holda maxsus jadvallardan tanlab olinadi va shu asosida binolarga o‘rnatilishi lozim bo‘lgan derazalar hamda fonarlar (yuqori tomonlama yoritilganlikda) soni hisoblanadi. Tabiiy yoritilganlikni me’yor darajasida ta’minkash uchun yorug‘lik o‘tish yo‘llari (derazalar maydoni va soni) ish turiga bog‘liq holda o‘rnatilgan yoritilganlik me’yori asosida hisob yo‘li bilan aniqlanadi.

Suniy yoritish. Sun’iy yoritish umumiyligi yoki kombinatsiyalashgan bo‘lishi mumkin. Kombinatsiyalashgan yoritishda umumiyligi va mahalliy yoritish birgalikda qo‘llaniladi. Umumiyligi yoritishda xona ichi umumiyligi chiroqlar yordamida yoritilsa, mahalliy yoritishda esa chiroqlar bevosita ish joyiga yoki ish jihoziga oldiga o‘rnatiladi, masalan, ish stoli ustida o‘rnatilgan ko‘chma chiroqlar, stanoklar yoki boshqa ish qurilmalarida o‘rnatiladigan chiroqlar va boshqalar.

Yoritilganlikni me’yorlashni engillatish maqsadida barcha ishlar aniqlilik darajasiga ko‘ra 6 razryadga bo‘lingan: o‘ta yuqori aniqlikdagi ishlar – I razryad; juda yuqori aniqlikdagi ishlar – II razryad; yuqori aniqlikdagi ishlar – III razryad; o‘ta aniqlikdagi ishlar – IV razryad; kamani aniqlikdagi ishlar – V razryad; dag‘al ishlar – VI razryad.

Eng yuqori yoritilganlik I razryaddagi ishlar uchun belgilangan bo‘lib 5000 lk. ni tashkil etadi, kichik yoritilganlik esa IV razryaddagi ishlar uchun – 75 lk qilib belgilangan.

Tashqi muhitda bajariladigan ishlarda ish razryadiga bog‘liq holda yoritilganlik 2 dan 50 lk gacha bo‘ladi.

Ishlab chiqarish xonalarida yoritilganlik parametrlarini aniqlashda ishchilarining ish stollariga yorug‘lik qaysi tomonidan tushishi, tabiiy yorug‘lik va sun’iy yorug‘lik yetarli bo‘ladimi, yorug‘lik ishchilarini ko‘zini qamashtiradimi yoki yo‘qmi, stollar va doska yuzasida yorug‘likni yaltirashi kuzatiladimi, shuni hisobga olish kerak.

Binolarning yuqori yoritish kerak emas, chunki bu xonaning haddan tashqari qizib ketishiga yoki gipotermiyaga olib keladi.

6.3. Ishlab chiqarish korxonalarida yoritilganlikni hisoblashda dastlabki ma'lumotlar.

1. 1.1-jadvaldagi variant ma'lumotlari va 6.7, 6.9-formulalar yordamida yorug'lik o'tkazish maydonini va xonalar uchun oynalar sonini aniqlang;
2. 6.10-formula orqali yorug'lik koeffitsiyentini hisoblang;
3. 6.11-formula orqali chuqurlik koeffitsiyentini hisoblang;
4. Xona uchun yorug'lik koeffitsiyenti kamida 1/6 bo'lishi kerakligini hisobga olgan holda, olingan koeffitsiyentlarning sanitariya-gigiyena me'yorlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqaring; chuqurlik koeffitsiyenti – 1/2 dan kam emas.

6.4. Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Binolarning tabiiy yoritilishini hisoblash. Odatda, xonada kunduzgi tabiiy yorug'lik bir devorda joylashgan derazalardan yon yorug'likning bir tomonlama qabul qilinishi tufayli sodir bo'ladi.

Bu holda tabiiy yorug'lik koeffitsiyentining minimal qiymati (TYoK) yorug'lik o'tadigan devor qiyaligidan $1 m$ masofada joylashgan nuqtada, vertikal tekislik va stollarning (yoki polning) shartli ishchi yuzasi kesishgan joyda normallashadi.

Yorug'lik o'tadigan maydon yuzasini dastlabki hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$\frac{S_{t.yon.yorit.}}{S_p} \cdot 100 = \frac{e_n \cdot \eta_o \cdot K_b}{\tau_0 \cdot r_l}, \quad (6.7)$$

bu yerda: $S_{t.yon.yorit.}$ – tabiiy yon yoritishdagi yorug'lik o'tadigan yuza maydoni; S_p – xona polining yuzasi; e_n – tabiiy yorug'lik koeffitsiyentini normallashtirilgan ko'rsatkichi (ko'rgazmali ishlarning xususiyatlarini hisobga olgan xolda $e_n = 0,6 \%$); η_o – derazalarning yorug'lik xarakteristikasi ($\eta_o = 31$); K_b – qarama - qarshi bino tomonidan derazalarga soyasi tushishini hisobga oladigan

koeffitsiyent (agar qarama - qarshi binolar bo'lmasa, u holda $K_b = 1$); τ_o – umumiylorug'lik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti:

$$\tau_0 = \tau_1 \cdot \tau_2 \cdot \tau_3 \cdot \tau_4, \quad (6.8)$$

bu yerda: τ_1 – materialning yorug'lik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $\tau_1 = 0,8$; τ_2 – yorug'likni deraza bog'lamalarida yo'qotilishini belgilovchi koeffitsiyent, qo'sh yog'och bog'lamlar uchun $\tau_2 = 0.65$; τ_3 – yuk ko'taruvchi konstruktsiyalarda yorug'lik yo'qolishini hisobga oladigan koeffitsiyent, yon tomondan yoritilganda $\tau_3 = 1$; τ_4 – quyoshdan himoyalovchi qurilmalarda yorug'lik yo'qolishini hisobga oladigan koeffitsiyent, tortiladigan pardalar uchun $\tau_4 = 1$; r_1 – xona yuzalaridan va binoga tutashgan asosiy qatlamdan aks ettirilgan yorug'lik tufayli yon yoritishda TYoK oshishini hisobga oluvchi koeffitsiyent (katta auditoriyalar uchun $r_1 = 1.9$).

6.9-formuladan biz tabiiy yon yoritishdagi yorug'lik o'tadigan kerakli yuza maydoni aniqlaymiz, m^2 :

$$S_{t.yon.yorit.} = \frac{e_n \cdot \eta_0 \cdot K_b \cdot S_p}{\tau_0 \cdot r_1 \cdot 100}, \quad (6.9)$$

Yorug'lik o'tadigan yuzalarning umumiyl maydoniga qarab, standart o'lchamdagidagi derazalarning kerakli soni hisoblab chiqiladi.

Misol uchun, agar natija yorug'lik o'tadigan yuzaning umumiyl maydoni $8 m^2$ bo'lsa, demak, deraza o'lchamlari binoning me'moriy xususiyatlari asosida tanlanadi, masalan, xona uchun har biri $4 m^2$ maydonga ega ikkita oyna kerak.

Bo'yagan devor yuzalarining qaytaruvchanligini hisobga olish kerak. Bu oq rangga bo'yagan sirt uchun 80%, och sariq rangga bo'yagan sirt uchun 60%, och yashil rangga bo'yagan sirt uchun 40%, och ko'k rangga bo'yagan sirt uchun 30% va tim ko'k rangga bo'yagan sirt uchun 6%. Sirti kir bo'lgan devorlar yangi bo'yagan yoki yuvilgan devorlarga qaraganda yorug'likni 2 barobar kamroq aks ettiradi.

Binolarning tabiiy yoritilishini xarakteristikasi uchun qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadigan yorug'lik koeffitsiyenti ishlataladi:

$$K_{yor.koef} = \frac{S_{t.yon.yorit.}}{S_p}, \quad (6.10)$$

bu yerda: $S_{t.yon.yorit.}$ – tabiiy yon yoritishdagi yorug'lik o'tadigan yuza maydoni (derazaning oyna bilan qoplangan maydoni); S_p – xona polining yuzasi.

Chuqurlik koeffitsiyenti – yerdan derazaning yuqori chetigacha bo'lган masofaning xonaning chuqurligiga nisbati, ya'ni yorug'lik o'tkazuvchi devordan qarama-qarshi devorgacha bo'lган masofa.

Chuqurlik koeffitsiyenti qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{chuq.koef.} = \frac{h_1}{b}, \quad (6.11)$$

bu yerda: h_1 – derazaning yuqori chetining poldan balandligi; b - xonaning chuqurligi (kengligi).

Binolarning sun'iy yoritilishini hisoblash. Yorug'likni hisoblashda yorug'lik oqimdan foydalanish koeffitsiyenti usuli bilan amalga oshiriladi. Bu usul qorong'ilik bo'limganda xonalarda gorizontal ishchi yuzalarini (masalan, stol yuzalarini) umumiy bir xil yoritilishini hisoblash uchun ishlataladi.

Har bir chiroqning kerakli yorug'lik oqimi (lm) qo'yidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$F = \frac{E \cdot S \cdot k \cdot z}{N \cdot \eta}, \quad (6.12)$$

bu yerda: E – vizual ishning ma'lum bir toifasi uchun ish sirtlarining me'yoriy minimal yoritilganligi, (lyuks - lk); $E = 300 lk$ qabul qilamiz; S – yoritiladigan maydon yuzasi, m^2 ; k – lampaning zaxira koeffitsiyenti, ishslash vaqtida ularning changlanishini va eskirishini hisobga olgan holda lampaning zaxira koeffitsiyenti $k = 1,4$ ga teng qilib olamiz; z – minimal yoritilganlik koeffitsiyenti, $z = 1,1-1,5$ (yoritgichlar orasidagi masofaning hisoblanayotgan balandlikdagi optimal nisbati $z = 1,1$); N – xonadagi lampalar soni; η – yorug'lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti.

Yorotilayotgan xonaning maydoni S , m^2 , qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = a \cdot b, \quad (6.13)$$

bu yerda: a – xona uzunligi, m ; b – xona eni, m .

Keyinchalik, xona ichiga o'rnatish uchun N lampalar soni hisoblanadi:

$$N = \frac{S}{L^2}, \quad (6.14)$$

bu yerda: L – lampalar orasidagi masofa, m .

Yoritgichlarning umumiy yoritish tizimiga ega bo'lgan xonaga joylashtirilishi ularning hisoblangan osma o'lchami h ning balandligiga bog'liq bo'lib, u odatda binolarning o'lchami bilan belgilanadi. Yoritgichlar orasidagi masofaning hisoblangan osma balandligiga eng qulay nisbati qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\lambda = \frac{L}{h}, \quad (6.15)$$

bu yerda: λ – yoritgichlar orasidagi masofaning hisoblangan osma balandligiga nisbati, chiroqning yorug'lik intensivligi egri chizig'iga qarab normativ hujjatlar jadvalidan aniqlanadi. Tipik kosinus egri chiziqli bo'lgan lyuminestsent lampalar uchun $\lambda=1,4$; h – yoritgichlardagi lampalarning hisoblangan osma balandligi, m.

Lampalar orasidagi masofa 6.16-formuladan kelib chiqadi:

$$L = \lambda \cdot h, \quad (6.16)$$

Ish stoli sathidan yuqori bo'lgan lampaning osma balandligini h quyidagi formula bo'yicha topish kerak:

$$h = H - h_{yo} - h_{ish}, \quad (6.17)$$

bu yerda: h_{yo} – shiftdan yoritgichning pastki chetigacha bo'lgan masofa, m .

Qandillarda ixcham lyuminestsent lampalar yoki cho'lg'amli lampalar ishlatilganda h_{yo} qiymatini hisobga olish kerak. Hozirda zamonaviy yoritgichlar hift sathiga moslashtirilgan quvurli lampalar bilan jihozlangan bo'lib, ularning shiftdan yoritgichning pastki chetigacha bo'lgan masofasini $h_{yo} = 0$ qilib olamiz. h_{ish} – polda ishchi stol sathigacha bo'lgan masofasi, odatda bu masofa $h_{ish} = 0,8 \text{ m}$.

Yorug'lik oqiminning foydalanish koeffitsiyentini (η) aniqlash uchun xonaning indeksini (i), shuningdek, xona devorlaridan (ρ_d) va shiftidan (ρ_{sh}) yorug'lik aks etish koeffitsiyentlarini topish kerak.

To'rtburchak xonalar uchun:

$$i = \frac{a \cdot b}{h \cdot (a + b)}, \quad (6.18)$$

bu yerda: a va b – xonaning eni va uzunligi, m ; h – yoritgichlarning taxminiy osma balandligi, m ;

kvadrat xonalar uchun:

$$i = \frac{0,5}{h} \cdot \sqrt{S}, \quad (6.19)$$

katta uzunlikdag'i xonalar uchun:

$$i = \frac{b}{h}, \quad (6.20)$$

Agar hisob-kitoblarda i indeksi 5 dan oshgan bo'lsa, ular $i = 5$ ga teng, agar i hisobida 0,5 dan kam bo'lsa, $i = 0,5$ ga teng qilib olinadi.

Xona sirtlarining aks ettirish koeffitsiyentlari: shift – $\rho_{sh} = 7\%$, devorlar – $\rho_d = 50\%$, stollarning ishchi yuzasi – $\rho_{ish} = 30\%$.

6.12-formulada shiftga osilgan qandilning har bir chirog'ning yorug'lik oqimi aniqlanadi. 1-ilovadagi 2, 3, 4-jadvallardan yorug'lik oqimiga qarab, chiroq turini tanlang. Shuni esda tutish kerakki, bitta ixcham lyuminestsent lampaning quvvatini (ular energiyani tejaydigan lampalar deb ataladi) beshta cho'lg'amli lampaning quvvatiga tenglashtirish mumkin. Masalan, YPZ5-2U-3 chirog'inining quvvati 15 Vt, bu esa 75 Vt cho'lg'amli chiroqqa teng.

Agar hisoblashda olingan yorug'lik oqimi F qiymatiga ega bo'lган lampalar bo'lmasa, shu olingan yorug'lik oqimiga mos lampalar tanlanadi, keyin xonaga joylashtirish uchun zarur bo'lган lampalar soni qayta hisoblash orqali aniqlanadi:

$$N_a = \frac{N \cdot F}{F_{tan}}, \quad (6.21)$$

bu yerda: N_a – aniqlangan lampalar soni; N – oldindan hisoblangan lampalar soni; F – chiroqning hisoblangan yorug’lik oqimi, lm ; F_{tan} – tanlangan chiroqning yorug’lik oqimi, lm .

Tanlangan lampalar qandilga bitta, ikkita, to’rtta va x.k. o’rnataladi. Yoritgichning turi va dizayni xonaning o’ziga xos va maqsadili bo’lishi kerak.

6.5. Nazorat savollari.

1. Yoritilganlik nima?
2. Yoritilish qanday birlikda o’lchanadi?
3. Yorug’lik oqimi qanday birlikda o’lchanadi?
4. Ravshanlik qanday birlikda o’lchanadi?
5. Pulsatsiya koeffitsienti nima?
6. Yorug’lik uzatish hususiyati nima?
7. Aks ta’sir koeffitsienti nima?
8. Qanday tabiiy yoritishlarni bilasiz?
9. Qanday sun’iy yoritishlarni bilasiz?
10. Qanday yoritkich turlarini bilasiz?
11. Yoritkichlarning sifat ko’rsatkichlari qanday asosiy parametrlarni tavsiflaydi?
12. Mehnat samaradorligiga ish joylarini yoritilishi qanday ta’sir ko’rsatadi?
13. Tarmoqdagi kuchlanish sun’iy yoritishga qanday ta’sir ko’rsatadi?
14. Lipillashning keskin chastotasi nima?
15. Suniy yoritishni me’yorlashtirishda hisobga olinadigan omillar.
16. Sun’iy yoritishning o’ziga xos xususiyati nimada?
17. Sun’iy yoritish tizimlari qanday tasniflanadi?
18. Yoritish moslamalarining roli qanday?
19. Lyuminessent va cho'g'lanma lampalarning afzalliklari va kamchiliklarini solishtiring.
20. Stroboskopik effektning sabablarini tushuntiring.

7 - AMALIY MASHG'ULOT

ELEKTROMAGNIT MAYDON URLANISHLARIDAN HIMOYALANISHNI HISOBBLASH

7.1. Mashg'ulotning maqsadi:

Turli manbalardan elektromagnit nurlanish darajasini hisoblash, nurlanish manbasidan xavfsiz masofasini aniqlash va baholash. EMMning salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni o'rGANISH.

7.2. Nazariy ma'lumotlar

Elektromagnit maydoni ma'lum kuchlanishdagi elektr maydoni (V/m) va magnit maydoni (A/m) vektorlari orqali ifodalanadi. Harakatlanuvchi elektromagnit to'lqinlari va vektorlari har yaqt o'zaro perpendicular bo'ladi. O'tkazuvchi muhitda tarqalayotganda ular o'zaro quyidagi bog'lanishga ega bo'ladi:

$$E = H \sqrt{\frac{\varpi \cdot \mu}{\gamma}} \cdot e^{-kz}, \quad (7.1)$$

bu yerda: ϖ – elektromagnit tebranishlarining aylanma chastotasi; γ – ekran moddasining solishtirma o'tkazuvchanligi; μ – bu moddaning magnit o'tkazuvchanligi; k – so'nish koefitsiyenti; z – nurlanayotgan ekran yuzasidan aniqlanayotgan nuqtagacha bo'lgan masofa.

Elektromagnit to'lqinlari vakumda yoki havo muhitida tarqalayotgan bo'lsa, $E=377 \cdot H$ bo'ladi. Elektromagnit to'lqinlarining tarqalishi maydondagi energiyani ko'chirish bilan bog'langan.

Elektromagnit maydondagi energiya oqimining zichligi vektori I (Vt/m^2) (intensivligi), - "Umov-Poynting vektori" deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$I = E \cdot H, \quad (7.2)$$

Elektromagnit maydoni nazariyasiga asosan o'zgamvchi elektr yoki magnit maydoni manba yaqinida ikki zonaga bo'linadi: yaqin zona yoki induksiya zonasasi

bo'lib, maydonlarini bir-birlariga bog'lanmagan deb hisoblash mumkin. Shuning uchun bu zonadagi normalashtirish eletromagnit maydonining ham elektr, ham magnit maydonlari qo'shilmalari sifatida olib boriladi.

Nurlanish zonasida esa maydon harakatlanayotgan elektromagnit to'lqinini vujudga keltiradi va bu harakatlanayotgan to'lqinning muhim parametri to'lqin oqimining zichlik quvvati hisoblanadi. Bu zonadagi normalashtirish intensivlikka asosan olib boriladi va bu intensivlik nuqtasimon manbagacha bo'lган masofa kvadratiga teskari proporsional bo'ladi.

$$R \leq \frac{\lambda}{2\pi} \approx \frac{\lambda}{6} \quad (7.3)$$

bu yerda: λ – to'lqin uzunligi bo'lib, $\lambda = S/f$ – tenglamasiga asosan aniqlanadi, bunda, S – elektromagnit to'lqinlarining tarqalish tezligi (vakum yoki havo muhiti uchun yorug'lik tezligi); f – elektromagnit to'lqinlarining chastotasi va nurlanish zonasasi bo'lib, $R > \lambda/6$ masofalarda joylashgan bo'ladi.

$$I = \frac{P_M}{4\pi \cdot R}, \quad (7.4)$$

bu yerda: P_M – manbaning nurlanish quvvati. Agar bu manba yo'naltirilgan harakterga ega bo'lsa (antenna), unda:

$$I = \frac{P_M \cdot Q}{4\pi \cdot R^2}, \quad (7.5)$$

bu yerda: Q – antennaning kuchaytirish koeffitsiyenti bo'lib, hisoblashlar yordamida aniqlanadi. Induktorlar, termik qurilmalarning kondensatoriati, generatorlarning ayrim qismlarini ulovchi floder liniyalari, transformatorlar, antennalar, to'lqin uzatgichlarning ochiq qismlari va o'ta yuqori chastota generatorlari elektromagnit to'lqinlarning manbalari sifatida qaralishi mumkin.

Bu manbalarda hosil bo'ladigan elektromagnit to'lqinlari radio chastotalarining tavsifi 7.1-jadvalda keltirilgan.

Elektromagnit to'lqinlari radiochastotalarining tavsifi

| Diapazonlari /belgilanishlari/ | Chastotasi, Hz (f) | To'lqin uzunligi, m (λ) |
|--|----------------------------------|-----------------------------------|
| Uzun to'lqinlar /DV/ | $3 \cdot 10^4 - 3 \cdot 10^5$ | 10000 – 1000 |
| O'rtacha to'lqinlar /SV/ | $3 \cdot 10^5 - 3 \cdot 10^6$ | 1000 – 100 |
| Qisqa to'lqinlar /KV/ | $3 \cdot 10^6 - 3 \cdot 10^8$ | 100 – 1,0 |
| O'ltra qisqa to'lqinlar /UKV/ | $3 \cdot 10^8 - 3 \cdot 10^9$ | 1,0 – 0,1 |
| O'ta yuqori chastotadagi to'lqinlar /SVCh/ | $3 \cdot 10^9 - 3 \cdot 10^{11}$ | 0,1 – 0,001 |

Elektromagnit maydonining inson organizmiga ta'siri elektr va magnit maydonlarining kuchlanishi, energiya oqimining intensivligi tebranish chastotasi, nurlanishning tananing ma'lum yuzasida to'planishi va inson organizmining shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Elektromagnit maydonining inson organizmiga ta'sir ko'rsatishining asosiy sababi inson tanasi tarkibidagi atom va molekulalar bu maydon ta'sirida musbat va manfiy qutblarga bo'lna boshlaydi. Qutblangan molekulalar elektromagnit maydoni tarqalayotgan yo'naliishga qarab harakatlana boshlaydi.

Elektromagnit maydonlarni ta'siridan himoyalashning asosiy usullari va vositalariga quyidagilar taluqli:

1. Himoyalashning tashkiliy choralari.
2. Manbadan nurlanishning jadalligini kamaytirish.
3. Nurlanish manbaining ekranlashuvi.
4. Nurlanish manbaidan ishchi o'rinarini ekranlashtirish va yoki holi qilish.
5. Signalizatsiya vositalarini qo'llash.
6. Individual himoya vositalarini qo'llash.

7.3. Elektromagnit nurlanishlardan himoyalanishni hisoblashda dastlabki ma'lumotlar

8-amaliy mashqning 1-sharti:

Himoya ekranisiz ishlash uchun o'ta yuqori chastotali nurlanish manbasidan R_{min} xavfsiz masofasini aniqlang, agar:

7.2-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari | Variantlar | | | | | | | | | | | | | | |
|--|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| <i>P, nurlanish quvvati, Vt</i> | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 40 | 45 | 50 | 55 | 60 | 65 | 70 | 75 |
| <i>T, nurlanish vaqt, minut</i> | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 5 | 30 |
| <i>G, skanerlash rejimida nurlanishning yo'nalishi</i> | 1000 | 800 | 700 | 600 | 500 | 400 | 300 | 200 | 100 | 150 | 250 | 350 | 400 | 450 | 550 |

7-amaliy mashqning 2-sharti:

Agar nurlanish quvvati (*P*), nurlanish yo'nalishi skanerlash rejimida (*G*) bo'lsa, 8 soatlik ish kuni hisoblangan ishchini ish o'rmini o'ta yuqori chastota diapazonida ishlovchi radiolokatsion stansiyasi (*RLS*) antennasidan qancha masofada (*R_{min}*) joylashtirish kerak.

7.3-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari | Dastlabki ma'lumotlar variantlari | | | | | | | | | | | | | | |
|--|-----------------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| <i>P, nurlanish quvvati, Vt</i> | 50 | 100 | 150 | 200 | 300 | 250 | 350 | 450 | 400 | 500 | 550 | 100 | 150 | 200 | 300 |
| <i>T, nurlanish vaqt, minut</i> | 5 | 50 | 12 | 10 | 15 | 60 | 20 | 30 | 25 | 28 | 35 | 38 | 40 | 45 | 90 |
| <i>G, skanerlash rejimida nurlanishning yo'nalishi</i> | 250 | 200 | 300 | 350 | 400 | 450 | 500 | 550 | 600 | 650 | 700 | 800 | 850 | 900 | 1000 |

7.4. Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

Yer stansiyasining xizmat ko'rsatuvchi xodimlari (foydanuvchisi) uchun SanPIN 0295-11 ga muvofiq:

- energiya oqimining zichligi (EOZ) ruxsat etilgan maksimal qiymat $P_{REQ} = 2 Vt \cdot soat/m^2$ dan oshmasligi kerak;

- tekistlikdagi energiy oqimining zichligi (TEOZ) ruxsat etilgan maksimal qiymat $P_{REQ,max} = 10 \text{ Vt/m}^2$ dan oshmasligi kerak;

Shu munosabat bilan, yer stantsiyasi antennasining elektromagnit nurlanishi (EMN) ta'sir ko'rsatadigan yer stantsiyasi hududda xodimlar (foydalanuvchi) o'tkazadigan vaqtning ruxsat etilgan maksimal qiymatini ko'rsatilishi kerak, buning uchun quyidagilarni hisoblash kerak:

- $P_{REQ,max}$ qiymatiga mos keladigan xavfsizlik zonasini, ya'ni yer stantsiyasi antennasi ish rejimida bo'lganda ishlayotganda xodimlarning ruxsat etilgan minimal masofasi;
- yer stantsiyasi antennasining EMN tarqalishi zonasida xodimlarning bir sutka davomuda faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan ruxsat etilgan vaqt chegaralari.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan SanPIN turar-joy binolari hududida radiochastotalarning elektromagnit nurlanishining ($RCh EMN$) intensivligini tartibga soladi, bu ruxsat etilgan $P_{t,j} = 0,1 \text{ Vt / m}^2$ maksimal qiymatidan oshmasligi kerak.

Yer stantsiyasi antennasining TEOZ qiymati (Vt/m^2) qo'yidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$P_A = \frac{P \cdot G(\theta)}{4\pi \cdot R^2}, \quad (7.6)$$

bu yerda: P – radio uzatish qurilmasi quvvati, Vt ; $G(\theta)$ – kuzatuv nuqtasi yo'nalishidagi antennani kuchaytirish koeffitsiyenti qiymati; R – kuzatish nuqtasidan antennagacha bo'lgan masofa, m .

Energiy oqimining zichligi (TEOZ) ruxsat etilgan maksimal qiymati $P_{REQ,max}=10 \text{ Vt/m}^2$ da ishlayotgan yer stantsiyasi antennasidan xodimlarni joylashuvining minimal ruxsat etilgan masofasi R_{min} :

$$R_{min} = \sqrt{\frac{P \cdot G(\theta)}{4\pi P_{REQ,max}}}, \quad (7.7)$$

Normaga muvofiq, yer stantsiyasi antennasining joylashuvi aholi turar-joylariga nisbatan minimal ruxsat etilgan masofasi $R_{a.t.j.}$ qo'yidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$R_{a.t.j.} = \sqrt{\frac{P \cdot G(\theta)}{4\pi P_{t.j.}}}, \quad (7.8)$$

7.8. Nazorat savollari

1. Elektromagnit maydonlari va uning parametrlarini tushuntirib bering?
2. Elektromagnit maydonlarining yaqin va induksiya zonalarini tushuntirig?
3. Elektromagnit to'lqinlari radiochastotalarining tavsifini ayting?
4. Elektromagnit to'lqinlarining inson organizmiga ta'sirini ayting?
5. Elektromagnit maydonining me'yorlarini ayting?
6. Elektromagnit maydonlaridan oraliqni uzaytirish yo'li bilan muhofazalanish nima?
7. Elektromagnit maydonidan ekranlar o'rnatish orqali muhofazalanishni tushuntiring?
8. Elektromagnit nurlanishlarini o'lchash usullarini ayting?

IONLASHTIRUVCHI NURLANISHLARDAN HIMOYALANISHNI HISOBLASH

8.1. Mashg'ulotning maqsadi:

Ionlashtiruvchi nurlanishning ta'siri, normasi va undan himoyalanish haqidagi asosiy ma'lumotlar bilan tanishish, tashkiliy-texnik tadbirlarni hisoblash, ishlab chiqarish korxonalaridagi xodimlarni va aholini ionlashtiruvch nurlanishlar ta'siridan himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.


8.2. Nazariy ma'lumotlar

Ionlashgan nurlar inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatib, og'ir kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin. Uning ta'sirida inson og'ir kasallik hisoblanadigan nur, oq qon kasalligi va har xil xavfli shishlar, teri kasalliklariga duchor bo'lishi mumkin. Shuningdek, ionlashgan nurlar ta'sirida genetik ta'sirlanish, ya'ni keyingi avlodlarga ham ta'sir ko'rsatuvchi nasliy kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Radioaktivlik – atom yadrolarining ion nurlanishlari chiqarishi natijasida boshqa bir atom yadrolarining hosil qilishidir.

Radioaktiv nurlanishlar ionlovchi nurlanishlar deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekulalarida ionlar hosil bo'ladi. Bunday ionlovchi nurlanishlarga rentgen nurlari, radio va gamma nurlari, alfa va beta nurlari, shuningdek, neyfron oqimlari kiradi.

Alfa nurlari – katta ionlashtirish kususiyatiga ega bo'lgan, harakat doirasi katta bo'limgan geliy atom yadrosining musbat zaryadlangan zarrachalari hisoblanadi. Harakat doirasi katta bo'limganligi sababli inson teri qavatigagina ta'sir qilib, terini yorib kira olmaydi,




shuning uchun ham uncha zararli emas.

Beta nurlari – radioaktiv moddalarning atom yadrolari tarqatadigan elektron yoki pozitron oqimidir. Bu nurlarning harakat doirasi ancha keng va yorib kirish qobiliyatiga ega. Shu sababli ham inson uchun xavflidir.

Gamma nurlari – ionlash qobiliyati katta bo'lmasa-da, katta yorib kirish kuchiga ega bo'lib, yadro reaksiyalari va radioaktiv parchalanish natijasida vujudga keladigan yuqori chastotadagi elektromagnit nurlari hisoblanadi.

Rentgen nurlari – moddalarni elektron oqimlari bilan bombardimon qilganda ajralib chiqadigan elektromagnit nurlaridir.




Inson tanasi ionlashtiruvchi nurlanish energiyasini o'zlashtiradi va shikastlanish darajasi nurlanishning so'rilgan energiya miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishning so'rilgan energiyasini moddaning birlik massasi bilan tavsiflash uchun "Nurlanishlarning yutilgan dozasi" tushunchasi qo'llaniladi. Yutilgan doza - bu energiya miqdori, nurlangan modda tomonidan yutilgan va ushbu moddaning massa birligi hisoblanadi. Xalqaro SI birliklar tizimida yutilgan doza birligi grey (Gr) hisoblanadi ($1 \text{ Gr} = 1 \text{ J/kg}$).

Yutilgan dozani hisoblash uchun tizimdan tashqari birlik ham qo'llaniladi - rad: $1 \text{ rad} = 0,01 \text{ J/kg}$; $1 \text{ Gr} = 100 \text{ rad}$. Rad juda katta o'lchov birligidir va shuning uchun nurlanish dozalari odatda rad ulushlarida ifodalanadi - yuzdan bir (sentirada), mingdan bir (millirad) va milliondan bir (mikrorad).

Atrof-muhit, ish yoki yashash joylarida rentgen nurlari yoki gamma nurlanishlar ta'sirida yuzaga kelgan radiatsiyaviy vaziyatni baholash uchun ekspozitsion dozas qo'llaniladi. Organizmga uzatiladigan radioaktiv energiya



miqdori ***ekspozitsion doza*** deyiladi. Rentgen va gamma nurlanishlarining ekspozitsion doza birligi sifatida kulon/kilogramm (Kl/kg) qabul qilingan.

Rentgen va gamma nurlanishlarining ekspozitsion dozasi kulon/kilogramm shunday birlikki, u nurlanish bilan tutashgan 1 kg quruq atmosfera havosida 1 Kl miqdordagi elektr zaryadlarining musbat va manfiy belgilari bo'lgan ionlarni vujudga keltiradi ($1 R = 2,58 \cdot 10^{-4} Kl/kg$). Biroq, amalda, tizimdan tashqari birlik - rentgen (R) tez-tez ishlataladi. 1 R yutilgan dozasi taxminan yutilgan $D = 0,88 rad = 0,9 Gr$ dozaga to'g'ri keladi.

SI tizimida ekvivalent doza birligi zievert (Zv) hisoblanadi. Ionlashtiruvchi nurlanishning ekvivalent dozasining tizimda bo'lмаган birligi ham mavjud - *ber* (rentgenning biologik ekvivalenti). $1 Zv = 100 ber$; $1 Zv = 1 Gr$ so'rilgan dozaga to'g'ri keladi.

Nurlanishning taxminiy turi rentgen va γ – nurlanishdan bir xil yutilgan dozada biologik jihatdan necha marta xavfliroq ekanligini ko'rsatadigan koeffitsiyent nurlanish *sifat koeffitsiyenti* (K) deb ataladi. Rentgen va γ – nurlanish uchun $K = 1$.

Shunday qilib, ekvivalent doza yutilgan dozaning va nurlanish sifat koeffitsiyenti ko'paytmasi bilan aniqlanadi: $1 rad \cdot K = 1 ber$; $1 Gr \cdot K = 1 Zv$.

Ionlashtiruvchi nurlanish shunday nurlanish deb ataladi, u muhitdan o'tib, uning ionlanishiga olib keladi. Ionlashtiruvchi nurlanish energiyasi tizimdan tashqari elektron volt (eV) birliklarida o'lchanadi: $1 eV = 1,6 \cdot 10^{-19} J = 3,8 \cdot 10^{-20} kal$.

Insonga ionlashtiruvchi nurlanish ta'siri.

Ionlashtiruvchi nurlanishlar inson tanasining to'qimalariga kirib borib ular bilan o'zaro ta'sirlashadu va quyidagi ta'sir turlarini keltirib chiqaradi:

- molekulalarning ionlanishi (yuqori energiya tufayli elementar zarrachalarning o'zaro ta'sirida ajralib chiqadigan);
- fizik-kimyoviy o'zgarishlar, buning natijasida yangi molekulalar, shu jumladan "erkin radikallar" kabi o'ta radioaktiv molekulalar hosil bo'ladi;

- hujayraning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan biologik muhim molekulalarning modifikatsiyasiga olib kelishi mumkin bo'lgan kimyoviy o'zgarishlar;
- hujayra o'limiga olib keladigan biologik ta'sirlar, ulardagi o'zgarishlar: genetik yoki saratonga olib keladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishlar ta'sirida biologik to'qimalarda o'zgarishlarning intensivligi (ta'sir qilish darajasi) quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- nurlanish manbasining quvvati;
- nurlanish turi;
- ta'sir qilish davomiyligii;
- organizmning individual xususiyatlari.

Bundan tashqari, organizmning turli to'qimalari turli xil radiosensitivlikka ega, ya'ni turli intensivlikdagi nurlanish bilan o'zaro ta'sir qiladi. Organlar va to'qimalarning radiosensitivligi radiatsiya xavfi koeffitsiyentlari K_r bilan baholanadi (8.1-jadval).

8.1-jadval

Radiatsiyaviy xavf koeffitsiyentlari K_r

| <i>Inson organlari</i> | K_r |
|------------------------|-------|
| Qizil suyak iligi | 0,12 |
| Suyak to'qimasi | 0,03 |
| Qalqonsimon bez | 0,03 |
| Sut bezlari | 0,15 |
| O'pka | 0,12 |
| Tuxumdonlar | 0,25 |
| Boshqa to'qimalar | 0,30 |
| Butun tana | 1,00 |

Nurlamishning insonga real ta'sirini baholash uchun ekvivalent doza ko'rsatkichi qo'llaniladi, bunda nurlanish turi bilan sifat koeffitsiyenti K_S hisobga olinadi (8.2-jadval).

Radioaktiv nurlanishlar kishi organizmining hammasiga birdan ta'sir ko'rsatmasdan, ba'zi bir a'zo va hujayralarini ko'proq zararlashi aniqlangan. Shuning uchun ham nurlanishning umumiyligi dozasi emas, balki organizmning qaysi qismida radioaktiv nurlanuvchi moddalar yig'ilganligi hisobga olinadi. Chunki bu

yig'ilgan qismlardagi radioaktiv moddalar butun organizm falokatini ta'minlashi mumkin.

8.2-jadval

Sifat koeffitsiyenti K_S

| Nurlanish turi | Sifat koeffitsiyenti K_S |
|---|----------------------------|
| Rentgen va γ – nurlanish | 1 |
| β – nurlanish, elektronlar va pozitronlar | 1 |
| 10 MeV gacha energiyaga ega protonlar | 10 |
| 20 keV gacha energiyaga ega neytronlar | 3 |
| 10 MeV dan ortiq energiyaga ega neytronlar | 10 |
| 10 MeV gacha energiyali α – nurlanish | 20 |
| Og'ir yadrolar | 20 |

8.3. Ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanishni hisoblashda dastlabki ma'lumotlar.

8.3-jadval

Qo'rg'oshin ekranining qalinligi zaiflashuv omiliga va qo'rg'oshin uchun zaiflashuvchi nurlanish energiyasiga bog'liqligi

| So'nishni karraligi | Nurlanish energiyasi meV da himoya qalinligi hq | | | | | | | |
|---------------------|---|------|------|------|------|------|------|---------|
| | 0,1 | 0,7 | 0,8 | 0,9 | 1,0 | 1,25 | 2,75 | 10 va < |
| 1,5 | 0,05 | 0,4 | 0,6 | 0,7 | 0,85 | 0,95 | 1,28 | 0,9 |
| 2,0 | 0,1 | 0,8 | 1,0 | 1,15 | 1,3 | 1,5 | 2,07 | 1,35 |
| 5,0 | 0,2 | 1,9 | 2,2 | 2,5 | 2,8 | 3,4 | 4,54 | 3,0 |
| 10 | 0,3 | 2,35 | 2,85 | 3,5 | 3,8 | 4,5 | 6,4 | 4,2 |
| 20 | 0,3 | 3,25 | 3,85 | 4,4 | 4,9 | 5,8 | 8,1 | 5,6 |
| 30 | 0,35 | 3,65 | 4,3 | 4,95 | 5,5 | 6,5 | 9,1 | 6,3 |
| 40 | 0,4 | 3,7 | 4,5 | 5,2 | 5,8 | 6,85 | 9,8 | 6,8 |
| 50 | 0,4 | 2,39 | 4,6 | 5,3 | 6,0 | 7,2 | 10,4 | 7,3 |
| 100 | 0,5 | 4,7 | 5,5 | 6,3 | 7,0 | 8,4 | 12,0 | 8,7 |
| 200 | 0,6 | 5,3 | 6,3 | 7,2 | 8,2 | 9,65 | 13,8 | 10,2 |
| 500 | 0,65 | 6,1 | 7,2 | 8,2 | 9,2 | 11,3 | 15,9 | 11,9 |
| 1 000 | 0,7 | 6,95 | 8,1 | 9,2 | 10,2 | 12,3 | 17,7 | 13,3 |
| 10 000 | 1,05 | 9,1 | 10,6 | 12,0 | 13,3 | 16,1 | 23,1 | 18,0 |
| 100 000 | 1,15 | 11,1 | 13,0 | 14,8 | 16,5 | 20,1 | 28,3 | 22,9 |
| 1 000 000 | 1,45 | 13,1 | 15,3 | 17,5 | 19,5 | 23,5 | 33,6 | 27,7 |
| 10 000 000 | 1,7 | 15,2 | 17,8 | 20,3 | 22,5 | 27,5 | 38,9 | 2,5 |

8.4-jadval

Himoya ekranlari uchun materiallarning zichligi

| Material | Zichlik, kg/dm ³ | Material | Zichlik, kg/dm ³ |
|-----------|-----------------------------|-------------|-----------------------------|
| Alyuminiy | 2,7 | Temir | 7,89 |
| Beton | 2,1-2,7 | g'isht | 1,4-1,9 |
| Suv | 1,0 | Qo'rg'oshin | 11,34 |
| Havo | 0,00129 | Chugun | 7,2 |

8.5-jadval

Hisoblashda uchun variant ma'lumotlari

| Nº variant | Radionuklid | Nurlanish turi | Ekspozitsion doza quvvati, R/soat | Aktivlik, mKi, (millikyuri) | Oraliq masofa, m | Ekran materiali | Flyurens, foton/sm ² |
|------------|-------------------------------|-------------------------|-----------------------------------|-----------------------------|------------------|-----------------|---------------------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 1 | Radiy (Radium), Ra-226 | α, γ | 270 | 980 | 0,35 | Beton | $1 \cdot 10^7$ |
| 2 | Kobalt (Cobaltum), Co-60 | β, γ | 70 | 5,4 | 0,8 | Beton | $1 \cdot 10^7$ |
| 3 | Kadmiy (Cadmium), Cd-115 | β, γ | 26 | 18 | 0,25 | Temir | $5 \cdot 10^7$ |
| 4 | Surma (Stibium), Sb-125 | β, γ | 35 | 25 | 0,2 | G'isht | $8 \cdot 10^7$ |
| 5 | Tellur (Tellurium), Te-129 | β, γ | 50 | 32 | 0,1 | Chugun | $20 \cdot 10^7$ |
| 6 | Stronsiy (Strontium), Sr-90 | β, γ | 30 | 10 | 0,1 | Alyumimiy | $2 \cdot 10^7$ |
| 7 | Yod (Iodium), I-126 | β, γ | 58 | 20 | 0,2 | Beton | $1 \cdot 10^7$ |
| 8 | Skandiy (Scandium), Sc-46 | β, γ | 25 | 10 | 0,3 | Suv | $5 \cdot 10^7$ |
| 9 | Kobalt (Cobaltum), Co-60 | β, γ | 50 | 20 | 0,4 | Havo | $4 \cdot 10^7$ |
| 10 | Kadmiy (Cadmium), Cd-115 | β, γ | 15 | 20 | 0,2 | Temir | $5 \cdot 10^7$ |
| 11 | Surma (Stibium), Sb-125 | β, γ | 24 | 20 | 0,1 | G'isht | $8 \cdot 10^7$ |
| 12 | Tellur (Tellurium), Te-129 | β, γ | 20 | 20 | 0,4 | Chugun | $20 \cdot 10^7$ |
| 13 | Seziy (Caesium), Cs | β, γ | 36 | 50 | 0,3 | Alyumimiy | $3 \cdot 10^7$ |
| 14 | Iridiy (Iridium), Ir-192 | β, γ | 45 | 100 | 0,1 | Beton | $10 \cdot 10^7$ |
| 15 | Qo'rg'oshin (Plumbum), Pb-210 | α, β, γ | 55 | 200 | 0,5 | Suv | $10 \cdot 10^7$ |
| 16 | Poloniy (Polonium), Po-210 | α, γ | 50 | 210 | 0,3 | Temir | $10 \cdot 10^7$ |
| 17 | Radiy (Ra) - 228 | β, γ | 240 | 1000 | 0,2 | Beton | $1 \cdot 10^7$ |

| <i>I</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> |
|----------|----------------------------------|-------------------------|----------|----------|----------|-----------|-----------------|
| 18 | Toriy (Thorium) Th-230 | α, γ | 360 | 1500 | 0,4 | Chugun | $10 \cdot 10^7$ |
| 19 | Uran (Uranium), U- 238 | α, γ | 562 | 2300 | 0,5 | Temir | $10 \cdot 10^7$ |
| 20 | Plutoniy (Plutonium), Pu-242 | α, γ | 38600 | 17000 | 0,2 | Chugun | $10 \cdot 10^7$ |
| 21 | Uran (Uranium), U- 238 | α, γ | 50 | 180 | 0,3 | Temir | $10 \cdot 10^7$ |
| 22 | Tellur (Tellurium), Te-129 | β, γ | 150 | 200 | 0,6 | Chugun | $20 \cdot 10^7$ |
| 23 | Kobalt (Cobaltum), Co-60 | β, γ | 120 | 70 | 0,5 | Havo | $4 \cdot 10^7$ |
| 24 | Stronsiy (Strontium), Sr-90 | β, γ | 70 | 30 | 0,4 | Alyumimiy | $2 \cdot 10^7$ |
| 25 | Yod (Iodum), I-126 | β, γ | 90 | 50 | 0,5 | Beton | $1 \cdot 10^7$ |
| 26 | Skandiy (Scandium), Sc-46 | β, γ | 130 | 75 | 0,6 | Suv | $5 \cdot 10^7$ |
| 27 | Iridiy (Iridium), Ir- 192 | β, γ | 30 | 110 | 0,4 | Beton | $10 \cdot 10^7$ |
| 28 | Qo'rg'oshin (Plumbum), Pb-210 | α, β, γ | 65 | 180 | 0,45 | Suv | $10 \cdot 10^7$ |
| 29 | Poloniy (Polonium), Po-210 | α, γ | 72 | 340 | 0,42 | Temir | $10 \cdot 10^7$ |
| 30 | Radiy (Radium), Ra-226 | β, γ | 175 | 1200 | 0,35 | Beton | $1 \cdot 10^7$ |

8.4. Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Kerakli himoya choralarini hisoblash uchun nurlanish manbalarining quyidagi xarakteristikalari qo'llaniladi.

Berilgan izotopning **umumiylionlanish gamma konstantasi** (yoki oddiy gamma konstantasi) boshlang'ich filtrlashsiz 1 sm masofadagi 1 mKi faollikkagi γ -nurlanishning nuqta manbai tomonidan yaratilgan ta'sir qilish dozasining tezligi (P/soat) sifatida aniqlanadi, $P \cdot \text{sm}^2 / (\text{soat} \cdot \text{mKi})$.

$$K_j = P \cdot \frac{R^2}{A}, \quad (8.1)$$

bunda P – ekspozitsion doza quvvati, P/soat ; R – masofa, $R=1\text{ sm}$; A – faollik, mKi .

Gamma ekvivalenti. Ionlashtiruvchi nurlanish manbasining gamma ekvivalenti radiyning (226Ra) mg dagi massasi bo'lib, u nuqta manbai shaklida

ma'lum masofada ushbu manba bilan bir xil gamma nurlanishning ta'sir qilish dozasini hosil qiladi:

$$m_{manba} = K_j \cdot \frac{A}{8,4 \cdot R^2}, \quad (8.2)$$

bunda m_{manba} – manbaning gamma ekvivalenti, *mg-ekv. Ra*; A – radionuklidning foalligi, mKi; 8,4 – radiy etaloninig doza quvvati, $P/(soat \cdot mg\text{-}ekv. Ra)$; R – gamma ekvivalentini aniqlashdagi etalon masofasi ($R=1$ sm qabul qilingan).

γ – kvantalarining energiyasi (W_f) nurlanish oqimining qiymatini (F , *foton/sm²*) hisobga olgan holda baholanadi. Fluyuens – bu birlik maydon orqali (fotonlar) oqimi bo'lib, ma'lum bir ekvivalent dozani hosil qiladi (*MeV*):

$$W_f = 10^8 \cdot D_{n(A,B)} \cdot K \cdot \frac{K_k}{F}, \quad (8.3)$$

bunda $D_{o(A,B)}$ – A (B) xodimlar uchun dozaning ruxsat etilgan quvvati (*Zv/yil*); $D_{n(A)} = 0,1$ *P/hafta*; $D_{n(B)} = 0,01$ *P/hafta*; K_k – nurlanishning sifat koeffitsiyenti (8.2-jadval); K – susayish karraligi; F – fluyuens, *foton/sm²* (8.5-jadvaldagagi variantga qarang).

Ruxsat etilgan vaqt. Xodimlarning bevosita ishlashi uchun ruxsat etilgan vaqt t (*soat/hafta*) qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t = 10^4 \cdot D_{nA} \cdot \frac{r_{hm}^2}{m_{manba} \cdot 8,4}, \quad (8.4)$$

bunda D_{nA} - xodimlar uchun dozaning ruxsat etilgan quvvati, $D_{n(A)} = 0,1$ *P/hafta*; r_{hm} – ishchi va manba orasidagi haqiqiy masofa, m (8.5-jadvaldagagi variantga qarang); m_{manba} – berilgan manbaning gamma ekvivalenti, *mg-ekv. Ra*.

Xodimlar to'liq ish haftasida ishlashi mumkin bo'lган manbaning maksimal quvvati M_{manba} (*mg-ekv. Ra*):

$$M_{manba} = 10^4 \cdot D_{nA} \cdot \frac{r_{hm}^2}{8,4 \cdot t_{hafta}}, \quad (8.5)$$

bunda t_{hafta} – ish haftasining davomiyligi, *soat/hafta*, $t_{hafta} = 40$ *soat/hafta*.

Minimal ruxsat etilgan masofa r_{rem} (m). Korxona hududidagi sanitariya - muhofaza zonasasi doirasida bo'lishi kerak bo'lgan minimal ruxsat etilgan masofa qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$r_{rem} = \sqrt{\frac{8,4 \cdot m_{manba} \cdot t_{hafta}}{10^4 \cdot D_{nB}}}, \quad (8.6)$$

bunda D_{nB} – B kategoriyadagi xodimlar uchun dozaning ruxsat etilgan quvvati, $D_{nB} = 0,01 P/hafta$.

Ekranning qalinligi h_e . Berilgan materialdan tayyorlangan ekranning qalinligi qo'rg'oshindan tayyorlangan ekranning qalinligi $h_{qo'r}$ orqali aniqlanadi, buning uchun ma'lum bir manbaning dozasi hisoblab chiqiladi D_{manba} ($P/hasfta$):

$$D_{manba} = \frac{8,4 \cdot m_{manba} \cdot t_{hafta}}{10^4 \cdot r_{hm}^2}, \quad (8.7)$$

Keyin, qo'yidagi formuladan foydalanib nurlanishning susayishi zarur bo'lgan karraligi hisoblanadi:

$$K = \frac{D_{manba}}{D_{oA}}. \quad (8.8)$$

Zarur bo'lgan qo'rg'oshin ekranning qalinligi 8.3-jadvaldan $h_{qo'r}$ nurlanishning susayish karraligi – K va γ – nurlanish energiyasi – W kattaliklari orqali olinadi. Yiliga 1700 soatlik ish davri uchun bir γ – kvant energiyasi 8.3-formula bilan hisoblanadi.

Agar himoya qilish uchun boshqa materiallardan tayyorlangan ekranlar ishlatsa, unda bunday ekranning qalinligi h_e qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$h_e = h_{qo'r} \frac{\rho_{qo'r}}{\rho_e}, \quad (8.9)$$

bunda $\rho_{qo'r}$ – qo'rg'oshin zichligi, kg/dm^3 ; ρ_e – ekran materiali zichligi, kg/dm^3 .

Qo'rg'oshin ekranlari uchun materiallarning zichligi 8.4-jadvalda keltirilgan. Ishni bajarish tartibi.

1. Amaliy ishning nomini va maqsadini yozing, o'zingizning variantingiz bo'yicha ma'lumotlarni yozing. Vazifalar variantlari 8.5-jadvalda keltirilgan.
2. Asosiy nazariy qoidalarni aniqlang va qayd qiling.
3. Berilgan qiymatlar bo'yicha berilgan K_j izotopining gamma konstantasini 8.1-formula bo'yicha hisoblang (8.5-jadval, 4 va 5-ustunlarda keltirilgan).
4. Berilgan radionuklidning gamma ekvivalentini 8.2-formula bo'yicha hisoblang.
5. 8.4-formula bo'yicha xodimlarning manba bilan bevosita ishlashining ruxsat etilgan t vaqtini hisoblang.
6. 8.5-formula bo'yicha xodimlarning to'liq ish haftasida ishlashi mumkin bo'lgan manbaning maksimal quvvatini M_{ist} hisoblang.
7. 8.6-formula bo'yicha odamlarning korxona hududidagi sanitariya zonasini doirasidagi bo'lishi kerak bo'lgan minimal ruxsat etilgan masofani r_{dop} hisoblang.
8. 8.7-formuladan foydalaniib, berilgan manbaning doza quvvatini D_{ist} hisoblang.
9. 8.8-formuladan foydalaniib, nurlanishning susayishining karraligini hisoblang.
10. Yiliga 1700 soatlik ish davri uchun bir γ - kvant energiyasi 8.3-formula bilan hisoblang.
11. Zarur bo'lgan qo'rg'oshin ekranining qalinligi 8.3-jadvaldan $h_{qo'r}$ nurlanishning susayish karraligi – K va γ – nurlanish energiyasi – W kattaliklari orqali aniqlang.
12. 8.5-jadval variantida ko'rsatilgan materialdan himoya ekranning qalinligini 8.9-formula bo'yicha hisoblang.
13. Hisoblash natijalarini 8.6-jadval shaklida joylashtiring. Xulosa qilish uchun: ionlashgan nurlanishlardan himoya vositalarini tanlash va ulardan foydalanish samaradorligini asoslang.

Natijalar jadvali

| Ko'rsatkichlar | Kattaliklar | O'lchamlari | Hisoblash formulalari |
|----------------|-------------|---------------------------------|-----------------------|
| K_j | | $R \cdot sm^2 / (ch \cdot mKi)$ | 8.1 |
| m_{manba} | | $mg\text{-ekv. Ra}$ | 8.2 |
| t | | $soat/hafta$ | 8.4 |
| M_{manba} | | $mg\text{-ekv. Ra}$ | 8.5 |
| $r_{go'sh}$ | | m | 8.6 |
| D_{manba} | | $P/hafta$ | 8.7 |
| K | | - | 8.8 |
| W_F | | MeV | 8.3 |
| $h_{go'r}$ | | sm | 8.3 – jadval |
| h_e | | sm | 8.9 |

8.5. Nazorat savollari

1. Nurlanish me'yorlari, nurlanuvchilar kategoriyalari va insonning nurlanishga xavfli organlari qaysilar?
2. Nurlanishlarning yutilgan dozasi, ekspozitsion doza va ekvivalent dozalar haqida ma'lumotlar keltiring?
3. Ionlashgan nurlanishning moddalar bilan o'zaro ta'sirini qanday izohlash mumkin?
4. Ionlashgan nurlanishlardan himoya vositalarini tanlash va ulardan foydalanish samaradorligi
5. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining barcha turlaridan aholining alohida guruhlari tomonidan olingan individual va kollektiv nurlanish dozalarini tahlil qilish.
6. Nurlanishning individual dozalarini nazorat qilish uchun metrologik, texnik hamda axborot talablariga rioya etilishini ta'minlash va monitoring qilish.
7. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ta'sir etganda, uning individual (shaxsiy) dozalari.
8. Tabiiy nurlanish va texnologik jihatdan o'zgartirilgan radiatsiya fonidagi individual nurlanish dozalari.
9. Texnogen ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining me'yoriy ishslash jarayonida personallarning nurlanishi;

10. Tashkilot ishchilari va aholini tabiiy ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan nurlanishi;
11. Tibbiy rentgenoradiologik muolajalarda aholining nurlanishi.

**220 V kuchlanishli yoritish tarmog'i uchun cho'lg'amli lampalarning
yorug'lik xarakteristikalari**

| Chiroq turlari | Yorug'lik oqimi, lm | Yoritish samaradorligi, lm/Vt |
|----------------|---------------------|-------------------------------|
| NV-15 | 105 | 7,0 |
| NV-25 | 220 | 8,8 |
| NB-40 | 400 | 10,0 |
| NB-40 | 460 | 11,5 |
| NB-60 | 715 | 11,9 |
| NB-100 | 1450 | 14,5 |
| NG-150 | 2000 | 13,3 |
| NG-200 | 2800 | 14,0 |
| NG-300 | 4600 | 15,4 |
| NG-500 | 8300 | 16,6 |
| NG-750 | 13100 | 17,5 |
| NG-1000 | 18600 | 18,6 |

Lyuminestsent lampalarning xarakteristikalari

| Chiroq turlari | Quvvati, Vt | Yorug'lik oqimi, lm | Umumiy balandligi, mm | Yoritish qismining balandligi, mm |
|----------------|-------------|---------------------|-----------------------|-----------------------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| YPZ3-2U-1 | 3 | 150 | 97 | 40 |
| YPZ5-2U-1 | 5 | 250 | 107 | 50 |
| YPZ7-2U-1 | 7 | 355 | 117 | 60 |
| YPZ9-2U-1 | 9 | 530 | 127 | 70 |
| YPZ11-2U-1 | 11 | 630 | 137 | 80 |
| YPZ13-2U-1 | 13 | 760 | 147 | 90 |
| YPZ3-2U-2 | 3 | 150 | 100 | 100 |
| YPZ5-2U-2 | 5 | 250 | 110 | 110 |
| YPZ7-2U-2 | 7 | 355 | 120 | 120 |
| YPZ9-2U-2 | 9 | 530 | 130 | 130 |
| YPZ11-2U-2 | 11 | 630 | 140 | 140 |
| YPZ13-2U-2 | 13 | 760 | 150 | 150 |
| YPZ5-2U-3 | 5 | 250 | 115 | 50 |
| YPZ7-2U-3 | 7 | 355 | 125 | 60 |
| YPZ9-2U-3 | 9 | 490 | 135 | 70 |
| YPZ11-2U-3 | 11 | 610 | 145 | 80 |
| YPZ13-2U-3 | 13 | 750 | 155 | 90 |
| YPZ15-2U-3 | 15 | 850 | 165 | 100 |
| YPZ9-3U-1 | 9 | 530 | 117 | 50 |

| <i>1</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> |
|------------|----------|----------|----------|----------|
| YPZ11-3U-1 | 1 | 630 | 127 | 60 |
| YPZ13-3U-1 | 13 | 760 | 137 | 70 |
| YPZ15-3U-1 | 15 | 930 | 147 | 80 |
| YPZ11-3U-3 | 11 | 630 | 120 | 50 |
| YPZ13-3U-3 | 13 | 760 | 130 | 60 |
| YPZ15-3U-3 | 15 | 850 | 140 | 70 |
| YPZ18-3U-3 | 18 | 1000 | 150 | 80 |
| YPZ20-3U-3 | 20 | 1060 | 160 | 90 |
| YPZ24-3U-3 | 24 | 1360 | 170 | 100 |
| YPZ26-3U-3 | 26 | 1460 | 175 | 105 |
| YPZ11-3U-4 | 11 | 630 | 132 | 50 |
| YPZ13-3U-4 | 13 | 760 | 142 | 60 |
| YPZ15-3U-4 | 15 | 850 | 152 | 70 |
| YPZ18-3U-4 | 18 | 1000 | 162 | 80 |
| YPZ20-3U-4 | 20 | 1060 | 172 | 90 |
| YPZ24-3U-4 | 24 | 1360 | 182 | 100 |
| YPZ26-3U-4 | 26 | 1460 | 187 | 105 |
| YPZ9-3U-7 | 9 | 550 | 105 | 50 |
| SL45-4U-1 | 45 | 2500 | 225 | 105 |
| SL55-4U-1 | 55 | 3000 | 240 | 120 |
| SL65-4U-1 | 65 | 4000 | 250 | 160 |
| SL36-4U-2 | 36 | 2000 | 205 | 100 |
| SL42-4U-2 | 42 | 2050 | 215 | 110 |
| SL45-4U-2 | 45 | 2500 | 225 | 120 |
| SL75-4U3 | 75 | 4700 | 325 | 205 |
| SL85-4U3 | 85 | 5000 | 345 | 225 |
| SL95-4U3 | 95 | 5500 | 360 | 240 |
| SL105-4U3 | 105 | 6400 | 380 | 260 |
| SL20-4TU | 20 | 1600 | 143 | 75 |
| SL26-4TU | 26 | 2050 | 148 | 80 |
| SL32-4TU | 32 | 2500 | 153 | 85 |
| SL65-4TU | 65 | 3900 | 233 | 160 |
| SL75-4TU | 75 | 4500 | 263 | 190 |
| SL85-4TU | 85 | 5100 | 293 | 220 |
| YPZ15-F1 | 15 | 780 | 140 | 62 |
| YPZ20-F1 | 20 | 1100 | 148 | 70 |
| YPZ23-F1 | 23 | 1400 | 157 | 79 |
| YPZ26-F1 | 26 | 1500 | 164 | 86 |
| YPZ9-F2 | 9 | 530 | 118 | 55 |
| YPZ11-F2 | 11 | 630 | 124 | 61 |
| YPZ13-F2 | 13 | 750 | 130 | 67 |
| YPZ15-F6 | 15 | 780 | 143 | 62 |
| YPZ20-F6 | 20 | 1100 | 151 | 70 |
| YPZ23-F6 | 23 | 1400 | 160 | 79 |
| YPZ26-F6 | 26 | 1500 | 167 | 88 |
| YPZ9-F10 | 9 | 530 | 107 | 55 |
| YPZ11-F10 | 11 | 630 | 113 | 61 |
| YPZ13-F10 | 13 | 750 | 119 | 67 |

